


ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ILMIY NAZARIY JURNAL



№ 1

2025-yil

www.fanistiqbollari.uz

ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ

научно-теоретический журнал

MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS

scientific-theoretical journal

№ 1-son, 2025-yil

	Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.	
--	--	--

BOSH MUHARRIR:
Tilavov Muxtor Hasan o'g'li
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya).

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri).

Qodirov Azizjon Anvarovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri).

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekani).

Atayeva Mexriniso Farxodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va elektronika kafedrasini dotsenti).

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini professori).

Yo'ldoshev Sobitali Zoxidjon o'g'li - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti)

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Nazarov Akmal Mardonovich

Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrası professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li

Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

YOSHLAR VA UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN ISHLASHDAGI XALQARO TAJIRIBANING PSIXOLOGIK VA IJTIMOYIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar va uyushmagan yoshlar guruhi bilan ishlash bo'yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan. Xususan, yoshlar siyosati, yoshlarni jamiyatga integratsiyasi masalasi, yoshlar orasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish masalalari bo'yicha qator rivojlangan mamlakatlarning tajribasi tahlil qilinganligi diqqatga sazovordir. Bu borada Moldova, Armaniston, Serbiya, Belorussiya, Finlandiya, Germaniya, Qozoqiston, Koreya, Ozarbayjon kabi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi O'zbekistondagi siyosiy islohotlar bilan qiyoslab tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, uyushmagan yoshlar, ijtimoiy qatlam, huquqbuzarlik, psixologik barqarorlik, jamiyat, din, tarbiya, axloq.

Аннотация: В данной статье анализируется международный опыт работы с молодежью и неорганизованными молодежными группами. В частности, стоит отметить, что проанализирован опыт ряда развитых стран с точки зрения молодежной политики, вопроса интеграции молодежи в общество, профилактики правонарушений среди молодежи. В связи с этим был проанализирован опыт таких развитых стран, как Молдова, Армения, Сербия, Белоруссия, Финляндия, Германия, Казахстан, Корея, Азербайджан в сравнении с политическими реформами в Узбекистане.

Ключевые слова: молодежь, неорганизованная молодежь, социальный класс, преступность, психологическая устойчивость, общество, религия, образование, мораль.

Abstract: This article analyzes the international experience of working with youth and non-organized youth groups. In particular, it is worth noting that the experience of a number of developed countries has been analyzed in terms of youth policy, the issue of youth integration into society, and the prevention of offenses among young people. In this regard, the experience of developed countries such as Moldova, Armenia, Serbia, Belarus, Finland, Germany, Kazakhstan, Korea, Azerbaijan was analyzed in comparison with the political reforms in Uzbekistan.

Key words: youth, unorganized youth, social class, delinquency, psychological stability, society, religion, education, morality.

Kirish. Hozirgi globallashuv yoshlarni mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy, siyosiy hayotiga integratsiyalashuvini ta'minlash borasida ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. «Yoshlar» tushunchasining mohiyati haqida so'z borar ekan, shuni aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi (qonunining 3-moddasida «Yoshlar (yosh fuqarolar) - o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir», deya huquqiy ta'rif berilgan [1]. O'zbek tilining izohli lug'atida ham «yoshlar-navqiron yigit-qizlardir», deb izoh berilgan [7]. Demak, yoshlar aholining o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan qatlami bo'lib, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning hissasi aholining 58,8 foizini tashkil etadi [2]. Respublikamizda so'nggi yillarda «Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi» [3] tamoyiliga ko'ra, Yangi O'zbekiston yoshlarini ijod, ilm, ta'lim-tarbiyada peshqadam qilib tarbiyalashning konseptual g'oyalari bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilib, «yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va



oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash»[6] ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi ham bejizga emas. So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar muammolar va ular bilan ishlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan yoshlar hayotiga taalluqli bo'lgan 40 ta qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinganligi ham buning yaqqol isbotidir. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 3 ta qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmoni, 8 ta qaror, 2 ta farmoyishi;
- Vazirlar Mahkamasining 18 ta qarori va 4 ta farmoyishi imzolandi.

Mazkur me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan asosiy maqsad yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilgan.

Yoshlar va ular bilan ishlash masalalari qator rivojlangan mamlakatlarda ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, xorijiy mamlakatlarning aksariyatida davlatning yoshlar siyosati sohasidagi asosiy tamoyillari, vazifalari aks etgan huquqiy hujjatning ishlab chiqish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Misol uchun, Armaniston, Ozarbayjon, Belorussiya, Finlandiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Koreya, Serbiya, Moldova, Belorussiya, Germaniya [8] kabi davlatlarda Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida qonun qabul qilingan va ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar strategiyalar orqali amalga oshirilmoqda.

Strategiyaning afzal tomonlaridan biri, uni qabul qilishdan oldin yoshlarning turli qatlamlari o'rtasida tadqiqotlar o'tkazilib, mavjud holat va muammolar aniqlanadi hamda uni bartaraf etishga oid tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi tomondan, ma'lum vaqtlar oralig'ida strategiyadagi vazifalarning ijrosi monitoring qilib boriladi. Bu davlatning yoshlarga oid siyosatini ma'lum bir muddatlarda baholab borish, tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, Moldovada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bugungi kunga qadar 3 ta strategiya ishlab chiqilgan. Xususan, "2009-2013 yillarda yoshlar masalalari bo'yicha milliy strategiya", "Moldova-2020" milliy rivojlanish strategiyasi" hamda "2020 yilgacha Yoshlar sektorini rivojlantirishning milliy strategiyasi" kabi hujjatlar mavjud bo'lib, ular mamlakatda yoshlar siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moldovada yoshlar bilan ishlashda diskriminasiyaga yo'l qo'ymaslikka e'tibor qaratiladi. Bunda yoshlarning turli guruhleri orasida tenglik masalasiga e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Moldovada "yoshlar bilan ishlovchi mutaxassis" larning yordamidan foydalaniladi. Bunda yoshlarni turli tartibbuzarliklarga aralashib qolmasligi va bo'sh vaqtini unumli sarflashi uchun turli soha mutaxassislarga biriktirgan holda ishlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Mazkur jarayonda "ustoz-shogird" tizimida ishlashga e'tibor qaratiladi. Yoshlarni maktab davridan boshlab, biror-bir mutaxassisga biriktirib, ularni ilmiy-ijodiy faolligini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Armaniston Respublikasida yoshlar bilan ishlash bo'yicha "2013-2017 yillarda yoshlarga oid davlat siyosati strategiyasi" [9] qabul qilingan. Mazkur strategiyada quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilgan:

- yoshlarni mamlakat siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi ishtirokini oshirish;
- yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va bandligini ta'minlashdagi muammolar;
- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- yoshlarni ma'naviy va madaniy qadriyatlar hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- uzluksiz hamda norasmiy ta'limni yanada rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan bandlardan ko'rinib turibdiki, yoshlar siyosatida asosiy e'tibor "uyushmagan yoshlar" guruhiga mansub qatlamni shakllanib qolmasligi muhimdir. Buning uchun ularni ish bilan band qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirishdir. Moldova singari Armanistonda ham yoshlar bilan ishlashda "mutaxassislarga biriktirish" tamoyiliga amal qilinadi.



Serbiyada ham “2015-2025 yillarda yoshlar milliy strategiyasi” [10] amaliyotga joriy etilgan. Strategiya yoshlar siyosati sohasida 9 ta muhim vazifalarni amalga oshirishni koʻzda tutadi:

- yoshlarning mehnat qobiliyatini va bandligini oshirish;
- yoshlarning oʻz mutaxassisligi boʻyicha malakalarini oshirish va ularning innovatsiyalar sohasidagi bilimlarini rivojlantirish;
- yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlash;
- yoshlarning salomatligini mustahkamlash;
- yoshlarning oʻz xavfsizligi sohasida madaniyatini yuksaltirish;
- jamiyatdan ajralib qolish xavfi boʻlgan yoshlar guruhlarini ijtimoiylashuviga yordamlashish;
- yoshlar oʻrtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yosh migrantlarni qoʻllab-quvvatlash;
- yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilishni takomillashtirish;
- madaniyat sohasidagi dasturlarni yaratishda yoshlarni faol jalb qilish [11].

Yuqorida keltirilgan tamoyillarga koʻra yoshlarni qobiliyatiga qarab bandligini taʼminlashga, ularning psixosotsial salomatligi, ijtimoiylashuviga katta eʼtibor qaratilgan. Ayniqsa, 3-banda keltirilgan “yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlash”, 6-banddagi “jamiyatdan ajralib qolish xavfi boʻlgan yoshlar guruhlarini ijtimoiylashuviga yordamlashish” masalasi, biz tadqiq etayotgan “uyushmagan yoshlar” qatlami bilan ishlashni oʻziga xos mexanizmidir. Chunki, “jamiyatdan ajralib qolish xavfi boʻlgan yoshlar”, deyilganda ogʻishgan xulq toifasiga kiruvchi, suisidal urinishlarni sodir etgan, huquqbuzarlikni sodir etgan yoshlar nazarda tutiladi. Davlat siyosatida mazkur qatlam bilan ishlash muhim ekanligini koʻrsatib oʻtgan. Boisi shuki, jamiyatdagi har bir xavf guruhiga mansub yoshlar, millatni tubanlikka, maʼnaviyatsizlikka olib keladi.

Yoshlar muammolarini davlat siyosati sifatida qarab, alohida ishlash tizimini yoʻlga qoʻygan mamlakatlardan biri Ozarbayjon Respublikasi hisoblanadi. Xususan, mazkur mamlakatda 2015-yilda “2015-2025 yillarda Ozarbayjon yoshlarini rivojlantirish strategiyasi” qabul qilingan. Mazkur strategiyada quyidagi jihatlar qamrab olingan:

- yoshlarni kasb tanlash borasidagi bilimlarini mustahkamlash;
- yoshlar orasidagi ishsizlik muammosini ijtimoiy jihatdan tadqiq etish;
- nogironligi boʻlgan yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish;
- xavf guruhiga mansub yoshlarni ijtimoiy-psixologik qoʻllab-quvvatlash, ularni ijtimoiylashuvini taʼminlash;
- yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish [12].

Yuqorida koʻrsatib berilgan, alohida bandlarda aynan turli qatlamga mansub yoshlar bilan ishlash ularni qoʻllab-quvvatlash masalalari yoritib berilgan. Xususan, yoshlar orasida huquqbuzarlikni oldini olish, ularni faolligini oshirish masalasiga qaratiladi.

Rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblangan Koreya Respublikasida yoshlar siyosati masalasi ikki muhim qonun boʻyicha nazorat qilinadi. Bu “Yoshlar borasidagi Qonun”dir [13]. Koreyada davlat siyosati quyidagi tamoyillarga boʻysunadi:

- yoshlarni band qilish, ularning huquqlarini himoya qilish;
- yoshlarni faolligini oshirish;
- yoshlar mustaqilligini taʼminlash, ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash;
- yoshlarni ilmiy innovatsion faolligini oshirish.

Bizga maʼlumki, Koreyada mamlakat rivojlanishi uchun yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatga yoʻnaltirish masalasiga eʼtibor qaratiladi. Chunki, yoshlarning ilmiy innovatsion faolligi ularni kreativ fikrlashi, ijodiy faolligi jamiyat va davlatning rivojlanishida muhim oʻringa egadir.

Koreyada yoshlar siyosatida eʼtibor qaratiladigan jihatning yana bir tomoni salbiy ijtimoiy hodisalardan “yoshlar orasidagi nigilizm” va jinoyatchilikni oldini olishdir.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda dasturiy texnologiyalardan foydalanish boʻyicha Belorussiya Respublikasida ham bir qator hujjatlar ishlab chiqilgan. Xususan, 2016-



2020-yillarga mo'ljallangan "Ta'lim va yoshlar siyosati", "Belarus Respublikasida xalq salomatligi va demografik xavfsizlik", "Belarus Respublikasida bolalar va yoshlarning uzluksiz ta'limi", "Aholining ijtimoiy himoyasi va bandligini ta'minlash" [14] kabi davlat dasturlari orqali mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Belorussiya Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining muhim jihatlaridan biri, unda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. Belorussiyada amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi quyidagilarga qaratilgandir:

- yoshlarni ma'naviy, axloqiy rivojlanishi uchun e'tibor qaratish;
- jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy ijtimoiylashuvga e'tibor qaratish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- yoshlarni hayotiy strategiyasini belgilash masalalari;
- iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni aniqlash;
- sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- yoshlarni ta'lim-tarbiyasini qo'llab-quvvatlash;
- yoshlarni jamiyat manafaati uchun foydali qilib voyaga yetkazish [15].

Belorussiyada amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatida ularni bandligini ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. Shu boisdan, yoshlarni axborot kommunikasiyaga oid bilimlarini kengaytirishga va yoshlarga nisbatan "raqamli avlod" atamasini qo'llashni taklif etilgan. "Raqamli avlod"ni jamiyatga manafaati tegadigan qilib voyaga yetkazish uchun ularni huquqiy savodxonligini, ma'naviy, ayniqsa vatanparvarlik hissini tarbiyalashni birinchi o'ringa qo'yadilar.

Yoshlar qatlami bilan ishlashda Finlandiya tajribasi ham katta ahamiyatga ega. Xususan, Finlandiyada yoshlar siyosati "Youth Act" dasturi asosida olib boriladi. Mazkur dasturda yoshlarni ijtimoiylashuviga yordam berish quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- yoshlarni jamiyatga ijtimoiy integrasiyasini qo'llab-quvvatlash;
- yoshlarning qobiliyatini rivojlantirish;
- yoshlarda dahldorlik hissini shakllantirish uchun ularning bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlashga, mustaqil qaror qabul qilish hissini tarbiyalashga e'tibor qaratish;
- yoshlarda huquqiy ong, fuqarolik burchini tarbiyalash [16].

Finlandiyada yoshlarda "ijtimoiy mas'uliyatlilik pozitsiyasini rivojlantirish" masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Buning uchun esa bolalar va yoshlar orasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish uchun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratgan. Finlandiyadagi ta'limda asosiy e'tiborni yoshlarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini va bu borada o'zaro hamkorlik qilishlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Buning uchun esa ishsiz yoshlarga mahorat maktablari, yoshlar orasidagi salbiy illatlar (spirtli ichimliklar, giyohvandik)ni oldini olish uchun ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ma'naviy qadriyatlarni bolalikdan shakllantirish masalasi muhim sanaladi.

Yoshlar va ularning muammolari bilan ishlash masalasida Germaniya tajribasi ham muhim o'ringa ega. Germaniyada yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun intiladilar. Yoshlar orasidagi huquqbuzarliklar, tartibbuzarliklarni oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratish Germaniyaning yoshlarga oid davlat siyosatida muhim o'ringa ega:

- yoshlarning ijtimoiy muammolarini aniqlash va ularni hal etish;
- yoshlar orasidagi ijtimoiy muammolarni oldini olish;
- yoshlarni jamiyat hayotiga integrasiyasini ta'minlash;
- yoshlarni jamiyat hayotidagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash;
- yoshlarda o'z-o'zini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- yoshlarga nisbatan tolerant bo'lish va axloqiy tushunchalarni shakllantirish [8]

Germaniyada yoshlar orasida turli illatlarning oldini olish uchun ularga "o'z-o'zini anglash"i uchun ko'p imkoniyatlar yaratib beriladi va qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun esa ishsiz yoshlarni reprofrentasiyasiga, ularning huquqiy ongini oshirish, ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga va mehnat tarbiyasiga katta e'tibor qaratiladi.



Yoshlar muammolari bo'yicha ishlashda Qozog'iston Respublikasining ham o'z tajribasi mavjud. Xususan, yoshlar orasidagi salbiy illatlarni oldini olish, destruktiv guruhlariga kirib qolishni oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi ko'rsatilgan:

- voyaga yetmagan yoshlarga psixolog-pedagogik, tibbiy-sotsiologik, yuridik yordam ko'rsatish;
- imkoniyati cheklangan va noqulay sharoitlarda yashovchi yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- yosh oilalarni ijtimoiy qo'llash;
- yoshlarni o'qitish va mehnatga jalb qilish masalasida huquqiy yordam berish;
- voyaga yetmagan deviant xulq egasi bo'lgan huquqbuzar yoshlarga ijtimoiy yordam berish;
- axloq tuzatish muassasalaridan qaytgan, giyohvand, turli salbiy illatlarga moyilligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiyasiga e'tibor qaratish;
- yoshlarni huquqiy ongini shakllantirish;
- yoshlarni bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va soha mutaxassislaridan ish o'rganishlarini yo'lga qo'yish;
- yoshlarni ish bilan band qilish, kasbga yo'naltirish.

Qozog'istonda uyushmagan yoshlar guruhiga mansub yoshlar bilan ishlashda o'ziga xos tajribasi mavjud. Bu borada mazkur mamlakat yoshlarni ijtimoiy bandligini ta'minlash, ularni jamiyatga qayta adaptatsiyasi borasida tizimli ishlar amalga oshirmoqda. Xususan, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish uchun ularni jamoat ishlariga jalb qilish, ularni tadbirkorlikka yo'naltirish, iqtisodiy ong va milliy xususiyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

Qirg'izistonda esa yoshlarga oid davlat siyosati "2020-2030 yillarga mo'ljallangan yoshlar siyosati konsepsiyasi" [10] asosida olib boriladi. Mazkur konsepsiyada 3 ta asosiy yo'nalish belgilab olingan. Bular quyidagilar:

birinchi yo'nalish – yoshlarni maqsadi sari intilishiga undovchi ijtimoiy institutlarning faoliyatini kuchaytirish;

ikkkinchi yo'nalish – yoshlarni javobgarligi yuqori bo'lgan qarorlarni qabul qilishdagi faolligini oshirish;

uchinchi yo'nalish – yoshlarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalanishiga e'tibor qaratish.

Mazkur konsepsiyaga muvofiq, yoshlarni destruktiv oqimlar ta'siridan himoya qilish uchun ijtimoiy institutlarning faolligini oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Qirg'istonda yoshlar orasidagi negativ va destruktiv holatlarni oldini olishdan ko'ra ularning pozitiv xususiyatlarini kuchaytirishga e'tibor qaratadi. Mazkur holatda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- pozitiv yo'nalganlik – bunda yoshlarni qilgan "salbiy ishlari"ni emas, balki ularni "ijtimoiy foydali ish"ga yo'naltirish.

- Kuchli tomonni rivojlantirish – yoshlarni zaif tomonlarini emas, balki ularni qobiliyatini kuchaytirishga yo'naltirishdir;

- universallik – yoshlarni tabaqalashtirmasdan, ularning imkoniyatlarini teng safarbar etish;

- jamiyatga tayanganlik – yoshlarning milliy an'analar va qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- hamkorlik – yoshlar orasidagi har qanday holatda hamkorlikka intilish [6]. Qirg'iziston tajribasidan ko'rinib turibdiki, yoshlar orasidagi negativ, xususan "uyushmagan, destruktiv" holatlarni oldini olishda milliy urf-odatlariga tayangan holda yoshlarning kuchli tomonini, qobiliyatini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Yuqorida keltirilgan xalqaro tajribalarni tahlilidan ko'rinib turibdiki, yoshlar siyosati barcha mamlakatlarda dolzarb ahamiyatga ega. Yoshlarning muammolarini aniqlash, ular bilan ishlashda davlat siyosati muhim o'ringa ega. Yoshlar jamiyatni ravnaqini ta'minlash bilan bir qatorda undagi muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki, yoshlar jamiyatdagi noturg'unlikni ham keltirib chiqarishi mumkin. Yoshlar jamiyatni turg'unligini, ijtimoiy barqarorligini



ta'minlovchi qatlam bo'lgani bilan ular orasida "uyushmagan yoshlar" qatlami ham mavjud. Mazkur qatlam qaysidir ma'noda jamiyatni taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. «Uyushmagan yoshlar» tushunchasi haqida so'z borar ekan, ushbu ibora «uyushmagan» va «yoshlar» so'zlari birikmasidan tashkil topgan. «Uyushmagan» so'zining o'zagi «uyushiq» bo'lib, unga o'zbek tilining izohli lug'atida «uyushgan, jipslashgan, ahil», unga ma'nodosh bo'lgan «uyushma» so'ziga esa «bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi» mazmunida izoh berilgan [7]. Demak, mantiqan olib qaraganda, «uyushmagan» so'zi «uyushiq» yoki «uyushma» so'zlarining aksi, ya'ni antonimi bo'lib, «jipslashmagan, ahil bo'lmagan, muayyan bir maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan» ma'nolarini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatida uyushmagan yoshlar bilan ishlash masalasi alohida o'rin tutadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "...uyushmagan yoshlar bilan ishlash, farzandlarimiz o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlash lozim", - deb aytadi [4]. Darhaqiqat, uyushmagan yoshlar toifasi jamiyatdagi turg'un va farovon hayotga zarar yetkazishi tabiiy. Biz aytayotgan uyushmagan yoshlar guruhiga kimlar kirishini aniqlashtirib olsak. Bular avvalo "uyushmagan, ya'ni ishlamaydigan, o'qimaydigan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmagan, salbiy ta'sirlarga beriluvchi yoshlar" hisoblanadi [5]. Shunday ekan, uyushmagan yoshlarning quyidagi turlarini ko'rishimiz mumkin:

- Vaqtincha ishsiz, o'qimaydigan yoshlar – turli sabablarga ko'ra foydali ish bilan band bo'lmagan, kasb egallashga intilmaydigan, mehnat bilan band bo'lmagan yoshlar qatlami;
- moddiy ta'minotga muhtoj, ijtimoiy ehtiyojmand va adashgan yoshlar –moddiy manfaatdorlik va ehtiyojmandlik tufayli destruktiv, ekstremistik oqimlarga qo'shilib, qolgan yoshlar guruhi;
- huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi mavjud yoshlar – qonunga qarshi motivatsiyasi kuchli bo'lgan, jamiyat va atrofdagilarning manfaatlariga qasddan qarshi chiqadigan, delikvent xulq-atvorga ega bo'lgan yoshlar;
- suicidal xavf guruhiga kiruvchi yoshlar – o'z joniga qasd qilishga, o'ziga zarar yetkazishga uringan yoshlar guruhi;
- profilaktik hisobda turuvchi, shuningdek, jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan yoshlar – addektiv, endiktiv, deviant xulq-avor egasi bo'lgan, jazo muddatini o'tab bo'lib, resotsializatsiya jarayonini boshidan kechirayotgan yoshlar.

Uyushmagan yoshlar guruhiga kiruvchi shaxslar bilan ishlashda, manzilli psixologik xizmatni tashkil etishda ularning individual, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tushunish, tahlil qilish muhim o'ringa ega. Yoshlar, ayniqsa, destruktiv xulqqa moyilligi bor uyushmagan yoshlar bilan ishlashda "shaxsning pozitiv sifatlarini kuchaytirish", xalqimizdagi naql bilan aytganda "yomonini yashirib, yaxshisini oshirish" tamoyiliga muvofiq "oila-mahalla-ta'lim muassasasi", "oila-mahalla" tizimidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim o'ringa ega.

Yuqoridagilarga asoslanib, yoshlar va uyushmagan yoshlar bilan ishlash borasida olib borilayotgan xalqaro tajribaning tahlili quyidagilarni xulosa qilishga olib keldi:

1. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol topishi uchun xalqaro tajribaning kuchli tomonlari olish, ularni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatilgan;
2. yoshlar orasida "uyushmagan guruhlarni" shakllanishini oldini olish uchun ijtimoiy institutlarning ta'sir mexanizmlarini kuchaytirish, manzilli psixologik xizmatni yo'lga qo'yish muhim ekanligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-406// <http://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1147> (14.10.2017)



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentyabr /<https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>

4. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”.-T.: “O‘zbekiston” 2018y. 494-b.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.-T.: “O‘zbekiston” 2017 y. 507-b.

Internet sahifalari:

6. https://azertag.az/ru/xeber/rasporyazhenie_prezidenta_azerbaidzhanskoi_respublikio_b_ut_verzhdenii_strategii_razvitiya_azerbaidzhanskoi_molodezhi_v_2015_2025_godah-829662

7. http://cbc.az/ru/v_story/video1517673079

8. <https://bntu.by/molodezhnaya-politika>

9. <http://novznania.ru>

10. Basic Education Act 628/1998 [Электронный ресурс]. URL: <https://www.finoph.fi/en/laki/kaannokset/1998/en19980628.pdf>, свободный (Дата обращения - 12.12.2017).

11. Youth Policies in Germany. 2017 // Youth Wiki. URL: <https://eacea.ec.europa.eu/nationalpolicies/sites/youthwiki/files/germany.pdf>

12. <http://law.gov.kz/client/#!/doc/20534/rus/27.07.2007>

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna

*Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasida dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ZAMONAVIY OILADA OTA-ONALARNING PSIXOLOGIK SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOİY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila hamda oiladagi farzand tarbiyasi shu bilan birga farzandga bo'lgan munosabat xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek xorij olimlarning olib borilgan tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlar bilan ham boyitilgandir. Bundan tashqari oiladagi ota va ona psixologiyasining rivojlanishi ham pedagogik ham psixologik jihatdan yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: normativ hodisa, hayotiy pozitsiya, subyektiv-shaxsiy, supra-individual, professional, reproduktiv ustanovka, komponent.

Аннотация: В данной статье описаны особенности семьи и воспитания детей в семье, а также отношение к ребенку. Он также обогащен информацией, полученной в результате исследований зарубежных ученых. Кроме того, как педагогически, так и психологически объясняется развитие психологии отца и матери в семье.

Ключевые слова: нормативный феномен, жизненная позиция, субъективно-личностный, надиндивидуальный, профессиональный, репродуктивный институт, компонент.

Annotation. This article describes the characteristics of the family and the upbringing of children in the family, as well as the attitude towards the child. It is also enriched with information obtained from the researches of foreign scientists. In addition, the development of the father's and mother's psychology in the family is explained both pedagogically and psychologically.

Key words: normative phenomenon, life position, subjective-personal, supra-individual, professional, reproductive institution, component.

Kirish. Oila - bu turmush o'rtoqlar, shuningdek, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy o'ziga xos tizimi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, ota-onalikni oila tizimidagi quyi tizim sifatida, nisbatan mustaqil sub'ekt sifatida kiritish mumkin.

Oila madaniy-tarixiy va ijtimoiy-psixologik hodisadir. Oilaning turli xil ta'riflari mavjud. Biz oilaning ijtimoiy tizim sifatidagi dastlabki ta'rifi sifatida A. Ya.Varga tomonidan berilgan: "Oila tizimi- bu umumiy yashash joyi, qo'shma uy xo'jaligi va eng muhimi, munosabatlar bilan bog'langan odamlar guruhidir.

Ota-onalik inson hayotining eng muhim sohalaridan biri bo'lib, u nafaqat maxsus maklaga ega bo'lish, balki uning shaxsiyatini o'zgartirish shartiga aylanadi. Biroq, vaqt o'tishi bilan, ota-onalik bir xil emas. Ushbu mavzuda asosiy e'tibor inson hayotidagi eng muhim voqea - bolaning tug'ilishi bilan ochiladigan ota-onalik davriga qaratilgan. Normativ hodisalardan biri bo'lib, u nafaqat hayot tarzida, balki hayotiy pozitsiyada ham o'zgarishlar sodir bo'ladigan davrning boshlang'ich nuqtasiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ota-ona tarbiyasi - bu individual tarbiyadir. Biroq, onalik va otalikning yig'indisi sifarida tahlil qilinarkan, Ota-onalik shakllanishi va rivojlanishida bir necha darajalarni o'z ichiga oladi.

1. Subyektiv-shaxsiy. Ichki muhiti bilan jarayonlarini ifodalaydi, yani ota-ona oilasida va jamiyatda to'plangan tajribasi orqali bola tug'ilishidan oldin oilaviy hayotning boshlanishiga tayyorligini his qiladi.

2. Supra-individual. Chaqaloq tug'ilgan paytdan boshlab tashqi olam bilan ota va onaning sub'ektiv-shaxsiy darajalarini birlashtirish jarayonidir. Ushbu darajaning shakllanishi beqarorlik bilan tavsiflanadi chunki, turmush o'rtoqlarning o'ziga xos jihatlari, ota-onalikning tarkibiy qismlarini tashkil qilishida olib keladi.



Ota-onalikning rivojlangan shakli barcha narsadan xabardorligi va tajriba ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu esa albatta ota onalik hissining namoyon bo'lishida ko'rish mumkin.

Turmush o'rtoqlarning ota-onalik haqidagi g'oyalari muvofiqligi hamda ota-onalikning dinamik ko'rinishlarining bir-birini to'ldirishi oila deb atalmish koshonani rivojlantirishga olib keladi.

R.V.Ovcharovning so'zlariga ko'ra ota-onalarning ustanovka va kutilmalari uchta darajaga ajratadi:

1. Biz - ota-onalar - turmush o'rtoqlarning reproduktiv ustanovkasi ularning munosabatlarda bilinishi kerak.

2. Biz - farzandimizning ota-onasi - ota-bolada o'rnatamiz ustanovkani munosabatlarda bo'lishi kerak.

3. Bu bizning farzandimiz - bolaga bo'lgan umid va ustanovkani munosabatlarda paydo qilamiz.

Ota-onalarning ta'lim manbai oilaviy hayot tarzining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ota-onalarning psixologik va pedagogik madaniyatini shakllantirish darajasiga bevosita bog'liq. Ota-onalarning bolaning rivojlanish jarayonini noto'g'ri tushinishlari, uning xarakterini tan olmasliklari, uning xatti-harakatlariga yetarli darajada munosabatda bo'lmasliklari oilaviy tarbiya va shaxsni shakllantirishda jiddiy xato va muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. O'qituvchilar va psixologlar tomonidan ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning uchdan ikki qismi o'zlarining pedagogik va psixologik bilimlari yetarli emasligini va buning natijasida bolalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni tan olishadi.

N.N. Obozov "psixologik-pedagogik madaniyat" tushunchasida uchta komponentni o'z ichiga oladi deb:

- o'zini va boshqa odamlarni tushunish va bilish;
- o'zini-o'zi hurmat qilish va boshqa odamlarni baholash;
- shaxsiy holatlar va xususiyatlarni o'z-o'zini tartibga solish, faoliyatni o'z-o'zini tartibga solish, boshqa odamlar bilan munosabatlarni tartibga solishni keltirib o'tadi.

Psixologik va pedagogik madaniyati aslida yuqori bo'lgan ota-onalar quyidagilarga moyildirlar:

- bolani o'zlaridek qabul qiling, ota-onalar esa har doimo ham qabul qilmaydi
- uning individualligini hurmat qilish;
- bola bilan imkon qadar ko'proq vaqt o'tkazishga harakat qilish;
- uning rejalari va ishlari bilan qiziqish;
- bolani ijodiy va intellektual qobiliyatlarni yuqori baholash;
- bolani, uning harakatlarini ijobiy baholash, maqtash;
- bolaga qo'yiladigan talablarda izchil bo'lish.

Bugungi kunda oila tarbiyasi, pedagogik tarbiya masalalari falsafiy, sotsiologik va psixologik-pedagogik asarlarda ancha yorqin yoritilgan. Shu bilan birga, oila muammolarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning individual psixologik-pedagogik madaniyatini shakllantirishning mazmuni va usullari, ularning darajasini baholash mezonlari va parametrlari bo'yicha hali ham yagona nuqtai nazar mavjud emas.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, oilada ota-ona eng ulug' zotlar hisoblanadi. Chunki ular o'z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag'ishlaydi.

Farzandi katta bo'lib, oila qurib ketgandan keyin ham u haqda qayg'urishdan to'xtamaydi. Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo'lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta'minlashga harakat qiladi.

Har qanday ota-ona o'z farzandining sog'lom, yetuk, iymon va e'tiqodli qilib tarbiyalanishini orzu qiladi. Ota-onalar barkamol o'g'il-qizlarni tarbiyalashlari uchun jamiyat oldida ham, millat oldida ham, ajdodlari va Ollohning oldida ham asosiy javobgardir.

Ota-ona tuyg'ulari - bu inson hayotida boshqa hissiy aloqalar orasida muhim o'rin tutadigan tuyg'ularning alohida guruhi. Muhim his-tuyg'ulardan biri bu ota-ona sevgisi bo'lib, u insonning



hissiy farovonligi, jismoniy va ruhiy salomatligini saqlashning manbai va kafolati hisoblanadi. Ota-onalarning his-tuyg'ularining mazmuni ikki tomonlama va qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Ota-ona tuyg'ularining tarkibiy qismini shakllantirish oila a'zolarining, birinchi navbatda, bolaning his-tuyg'ularini tushunish va ularning his-tuyg'ularini etarli darajada ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, ota-ona rolini bajarishda aks ettirish ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslanishi kerak. Ota-ona his-tuyg'ularining salbiy tomonlarini tuzatish uchun ota-onaning biron bir maqsadiga erishish vositasi sifatida emas, balki bolaning o'zini o'zi qadrlashini tushunish nuqtai nazaridan komponentning kognitiv tarkibiy qismiga tayanish mumkin.

Ota-onalikni shakllantirish pedagogik maqsadlarning manbai va oilani pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish nuqtai nazaridan bir vaqtning o'zida ularga erishish vositasidir. O'rganilayotgan tizimda ota-onalikning psixologik va pedagogik shakllanishi oilaning pedagogik salohiyatiga asoslangan bo'lishi kerak.

Ota-onalikning psixologik va pedagogik shakllanishi ikki jihatni o'z ichiga oladi:

1) ota-onani bolani tarbiyalash vositasi sifatida shakllantirish;	2) ota-onalikni oilaviy rollar, ota-ona va oilaviy funktsiyalar haqidagi g'oyalarni yetkazish nuqtai nazaridan bolani ijtimoiylashtirishning alohida holati sifatida shakllantirish.
---	--

Ota-onalarning bolaga ta'siri ongli ravishda yoki o'z-o'zidan paydo bo'lishiga qaramay, doimiy ravishda amalga oshiriladi. Ta'lim maqsadlarining ongsiz ta'siri, yo'qolishi yoki shakllanmaganligi kutilmagan natijalarga olib keladi. Shu munosabat bilan, ota-onalikning psixologik va pedagogik shakllanishini ota-onaning o'zini anglashiga, bolaga pedagogik ta'sirini anglashga asoslash kerak.

Shu bilan bir qatorda, ota-ona tomonidan oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlarning xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy hayotning tashkil etilishidan iborat. Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Demak, xulosa o'rnida aytish mumkinki, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari va ta'sir qilish omillari mavjud ekan, ota-onalarning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari lozim. Ota-onalarning butun hayoti, ularning fuqarolik qiyofasi, ma'naviy dunyosi bola tarbiyasining negizini tashkil etadi. Zotan, ota-ona bolalari uchun aziz va muqaddas kishilardir. Ota onalar nafaqat psixologik jihatdan oilaga tayyorligi balki pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishsa, farzand tarbiyasi va ta'lim olishiga juda katta hissa qo'shishgan bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений.- М.: Апрель Пресс, ЭКС- МО - Пресс, 2000.
2. Гарбузов В. И., Захаров А. И., Исаев Д. Н. Неврозы и их лечение.- Л., 1977.
3. Адлер А. О нервическом характере /А.Адлер; Пер. с немц. И.В.Стефанович / Под ред. Э.В. Соколова. – СПб.: Университетская книга, 2007. – 388 с.
4. Анциферова Л.И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование ситуаций и психологическая защита / Л.И.Анциферова // Психологический журнал. – 2014. – №1.
5. Бойко В.В. Энергия эмоции в общении: взгляд на себя и на других. – М.: Информационно-издательский дом «Филинъ», 2016. – 472 с.



Po'latova Madina Shavkatovna,

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DIQQAT PROTSESLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asosiy xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan pedagogik metodlarni va psixologik tushunchalarni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: diqqat, kichik maktab yoshi, psixologik xususiyat, o'rganish, pedagogik qo'llanma, ilg'or texnologiya, metod.

Аннотация. В данной статье рассмотрены основные педагогические и психологические особенности развития внимания младших школьников. Он также выделяет педагогические методы и психологические концепции, необходимые для развития внимания младших школьников.

Ключевые слова: Внимание, младший школьный возраст, психологическая характеристика, обучение, педагогическое пособие, передовая технология, метод.

Annotation. This article explores the pedagogical and psychological main features of the development of the attention of primary school students. It also emphasizes the pedagogical techniques and psychological concepts necessary for the development of the attention of primary school students.

Key words: Attention, small school age, psychological character, learning, pedagogical guide, advanced technology, method.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatining rivojlanishi o'quv jarayonida juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zlarining o'rganish va ma'lumotlarni qabul qilish xususiyatlari o'zgarishi uchun zamonaviy pedagogik va psixologik usullar juda muhimdir. "Boshlang'ich sinf o'quvchilar diqqatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy ishlar o'quvchilarning diqqatini, o'rganishni va rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan. Bu mavzuda bir nechta muhim nuqtalar mavjud:

O'quvchilar bilan o'zaro aloqalar: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini jalb qilish uchun, o'qituvchilar o'quvchilar bilan yaxshi aloqalar o'rnatishlari kerak. Bu aloqalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'rganish jarayonlarini oshirishga yordam beradi.

Individual qismlash: Har bir o'quvchi o'z rivojlanish tempiga ega bo'lishi mumkinligini ta'minlash uchun, boshlang'ich sinf o'qituvchilari barcha o'quvchilarning individual xususiyatlarini tushunishlari kerak. Bu har bir o'quvchiga mos keladigan o'rganish usullarini aniqlash uchun muhimdir.

Diqqat tizimlarini rivojlantirish: Pedagogik usullar va texnikalarni qo'llash orqali o'quvchilarning diqqat tizimlarini rivojlantirish mumkin. Masalan, o'quvchilarning fokuslanishini oshirish uchun interaktiv dars usullaridan foydalanish, o'quv materiallarini vizualizatsiya qilish, yoki faol dars ishlari orqali o'quvchilarning qiziqishlarini jalb etish kabi.

Ta'lim jarayonini qiziqarliroq qilish: Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun qiziqarli qilishlari kerak. Bu, masalan, o'quv materiallarini harakatlandiruvchi darslar tayyorlash, savol-javob usullaridan foydalanish yoki o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar yaratishni o'z ichiga oladi.

Psixologik yondashuv: Boshlang'ich sinf o'qituvchilari psixologik bilimlardan ham foydalangan holda, o'quvchilarning o'zgargan jarayonlariga va o'rganish xususiyatlariga e'tibor berishlari kerak. Bu, o'quvchilarning mantiqiy va hissiy holatlarini tushunish va ularning o'zlarini rivojlantirishlari uchun juda muhimdir.



Bog'liqlik va samarali ta'lim tizimi: O'quvchilar diqqatini rivojlantirishda, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini samarali boshqarish uchun integrativ ta'lim metodlaridan foydalanishlari lozim. Bu, darslarning o'quvchilar uchun ma'qul va bog'liq bo'lishini ta'minlash va o'quvchilarning o'zlarini o'rganishlari va rivojlantirishlari jarayonlarini oshirishga yordam beradi.

Bu tushunchalar va metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini rivojlantirish uchun asosiy bo'lishi kerak bo'lgan elementlardir. Bu mavzuda ilmiy ishlar ko'p o'rganilgan va bu jarayonning mustaqil o'quvchi o'rganishiga va rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida ko'proq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Diqqat pedagogik-psixologiyada o'rganilgan muhim bilish jarayonlaridan biri bo'lgan. Bu borada rus pedagogi K.D.Ushinskiy ishlarida diqqat to'g'risida juda muhim fikrlar aytilgan. K.D.Ushinskiy fikricha, diqqat ruhiy hayotning shunday yagona eshigidirki, inson ongiga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqatni o'rganish borasida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, I.V.Straxov kabi olimlar bir qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan: B. G. Ananyev "O'quvchilarda diqqatni tarbiyalash" nomli asarida diqqatni doimiy tekshirish, tadqiq qilish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Diqqatni tekshirishda shunday holat va vaziyatlarga e'tibor berish kerakligini ko'rsatib beradi: darsni to'g'ri va noodatiy tashkil qilish, ta'lim jarayoning puxtaligi tuzulganligi, o'qituvchi shaxsining pedagogik mahorati, o'quvchilarning darslardagi faoliyatini to'g'ri tashkil qila bilish. B.G.Ananyev bu bilan diqqatning uzoq vaqt bir obyekt ustida to'play bilish muhimligini uqtiradi.

Diqqatni tadqiq qilish I. V. Straxov asarlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, unda diqqatga turlicha yondashuvlar mavjud. O'quvchilar diqqati kelib chiqishiga va ishlash uslubiga ko'ra ijtimoiy tabiatga ega. Diqqatning rivojlanishi o'quvchining individual-tipologik xususiyatlariga ham bog'liq hisoblanadi. O'quvchilarda diqqatning yaxshi rivojlanishi o'qish faoliyatining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Diqqatning muhim belgisi bu o'quvchilarda o'qish faoliyati jarayonida va atrofdagilar bilan aloqaga kirishishi va psixikasining to'planishidir. Yosh va pedagogik psixologiyada o'rganilgan diqqatning xususiyatlari-to'planishi har xil sifatlarda va rivojlanishda aks etishidir. Qator vaziyatlarda diqqatning to'planishi ikki xil xarakterda amalga oshadi: u predmet va hodisalarga qarab yo'naltiriladi, ya'ni bunda, diqqat obyekti ongli ravishda ajratiladi, bu holatda turli xil obyektlardan chalg'ish vositasi yangi aktlar tizimini tashkil etadi, to'planish ayni diqqat qaratilayotgan predmetga yo'naltiriladi, lekin bu kechayotgan jarayon ham diqqat obyekti sifatida qoraladi. Bunday diqqat to'planishi faoliyat ob'ektiga o'tadi va u harakatga aylanadi. Uzoq vaqt mobaynida A.N.Leontyev o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqatini tekshiradi. Buning asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning idroki bilan diqqatining o'zaro aloqasini o'rgandi. Diqqat shunday hodisa hisoblanadiki, u idrokning qanday kechishi bilan belgilanadi. A.N. Leontyev o'zining keyingi izlanishlarini o'quvchilarda diqqatning turli xususiyatlarini rivojlantirish va idrokni boshqarish, eshitish, qo'yilgan topshiriqni tushunish kabilarni qanday bajarishini o'rganish bilan davom ettirdi.

L.S.Vigotskiy ham o'z navbatida diqqat borasidagi qarashlarini ilgari surgan. L.S.Vigotskiy nazariyasi asosida ikkita asosiy g'oya yotadi.

A) psixik faoliyat xarakteri haqida.

B) ichki va tashqi faoliyatdan ichki psixik jarayonlarining namoyon bo'lishi.

L.S.Vigotskiy psixik funksiyalar rivojini o'rganib, shular ichiga ixtiyoriy diqqatni ham kiritadi. Vigotskiy fikricha, bolada mavjud bo'lgan diqqatning tarixi bola xulqining boshlang'ich nuqtasidir. L.S.Vigotskiy olib borgan tadqiqotlarning xarakterli tomoni shundaki, unda kishi psixikasini tahlil qilishda genetik va tarixiy yondashilgan. L.S.Vigotskiy diqqatni o'rganishga ham bu qarashlarini tatbiq qilgan va diqqatning rivojlanishini ko'rsatib bergan. U diqqat rivojlanishidagi ikkita asosiy yo'nalishni ko'rsatadi.

1. Diqqatning tabiiy rivojlanishi. Bunda markaziy nerv sistemasining strukturaviy va funksional jihatdan o'sib borishini ko'rsatadi. Diqqatning bu rivojlanishi butun hayot davomida bo'ladi, ammo bunda "sekinlashgan" va bir oz sustlashgan ko'rinishlar ham mavjud.



2. Diqqatning madaniy rivojlanishi. Bunda ixtiyoriy diqqatni namoyon bo'lishi madaniy konsepsiya sifatida ko'rsatiladi.

Muhokama. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatini rivojlantirish pedagogik-psixologik jihatlari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'quvchilarning psixologik va pedagogik ehtiyojlarini qondirish, ularning o'qish jarayonida faolligini oshirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Quyida diqqatni rivojlantirishning ba'zi muhim jihatlari keltirilgan:

1. Diqqat turlari: Diqqat faol va passiv, ixtiyoriy va ixtiyorsiz, muayyan predmetga yoki hodisaga qaratilgan. O'quvchilarning diqqatini kuchaytirish uchun ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishga e'tibor berish lozim.

2. Boshqaruv va tartibga solish: O'qituvchi diqqatni boshqarish va tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun turli metodlardan foydalanish mumkin: interaktiv darslar, guruhli ishlash, o'yinlar va talabalar bilan muhokama qilish.

3. Maqsad va motivatsiya: O'quvchilarda diqqatni jalb qilish uchun darsning maqsadlari aniq belgilanishi va o'quvchilarni motivatsiyalash muhimdir. Motivatsiya tufayli o'quvchilar darsga qiziqish bilan yondashadilar va to'g'ri diqqatni qaratadilar.

4. O'quv materialining qiziqarli taqdimoti: O'qitish jarayonida ko'rib chiqilayotgan material qiziqarli va o'ziga xos bo'lishi lozim. O'quvchilarga yangicha yondashuvlar va usullar orqali taqdimot qilish, diqqatlarini oshiradi.

5. Vaqtni boshqarish: O'quvchilar dars davomida diqqatni yo'qotmaslik uchun vaqtni yaxshi rejalashtirish zarur. Bu o'quvchilarning e'tiborini bir ichki predmetga qaratishda yordam beradi.

6. Psixologik jihatlar: O'quvchilarning psixologik holati, ularning konfliktlari, ishontirish, va psixologik barqarorligi diqqatni rivojlantirishda muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarning psixologik holatini kuzatishi, monitoring o'tkazishi va kerak bo'lganda yordam berishi zarur.

Bu jihatlar, o'quvchilarning diqqatini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi va muvaffaqiyatli ta'lim jarayoni uchun juda zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilar diqqatini rivojlantirish pedagogik-psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun bir qator xususiyatlarni hisobga olish zarur:

1. Diqqatning tabiiy rivojlanishi: Bolalar diqqatini rivojlantirish uchun ularning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va turli psixologik holatlarini inobatga olish kerak.

2. O'yin orqali o'qitish: O'yinlar diqqatni rivojlantirish uchun samarali vosita. O'yinlar yordamida bolalar nafaqat diqqatini jamlaydi, balki guruhda ishlash, intizom va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

3. Rag'batlantirish: O'quvchilarning diqqatini oshirish uchun ularni rag'batlantirish muhimdir. Bu, masalan, yutuqlarini e'tirof etish, motivatsion materiallar taqdim etish va ijobiy muhit yaratish orqali amalga oshiriladi.

4. Dars jarayonining xilma-xilligi: darslarni turli usullar bilan o'tkazish (vizual, eshitish, amaliy) o'quvchilarning diqqatini uzluksiz saqlashga yordam beradi.

5. Qisqa va aniq vazifalar berish: O'quvchilarga qisqa va aniq bo'lgan vazifalar berish ularning diqqatini to'plashini osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada rus tiliga tarjima qilingan O'Tkir Hoshimov asarlarida lingvopoetik ma'no va milliy obrazlar transformatsiyasining xususiyatlari tahlil qilinadi. Adibning asarlarida qo'llanilgan xalqona iboralar, metaforalar, milliy koloritga ega leksik birliklar va ularning tarjima jarayonidagi ekvivalent topish muammolari yoritiladi. Xususan, muallifning o'ziga xos uslubi, obrazlilik va badiiy tafakkurni ifodalovchi vositalar rus tiliga tarjima qilinganda qanday o'zgarishlarga uchrashi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, badiiy tarjima, milliy kolorit, metafora, xalqona iboralar, lingvokulturologiya, tarjimon kompetensiyasi, ekvivalentlik, badiiy tafakkur.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности трансформации лингвопоэтического смысла и национальных образов в произведениях Уткира Хашимова, переведённых на русский язык. Освещаются проблемы эквивалентного перевода народных выражений, метафор, лексических единиц с национальным колоритом, использованных в произведениях писателя. В частности, рассматриваются изменения, которым подвергаются индивидуальный стиль автора, образность и средства художественного мышления при переводе на русский язык.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный перевод, национальный колорит, метафора, народные выражения, лингвокультурология, переводческая компетенция, эквивалентность, художественное мышление.

Annotation: This article analyzes the peculiarities of the transformation of linguopoetic meaning and national imagery in the works of O'tkir Hoshimov translated into Russian. It highlights the challenges of finding equivalents for folk expressions, metaphors, and lexemes with national coloring used in the writer's texts. Special attention is given to how the author's unique style, imagery, and means of artistic thinking change during the translation process into Russian.

Keywords: linguopoetics, literary translation, national coloring, metaphor, folk expressions, linguoculturology, translator's competence, equivalence, artistic thinking.

Kirish. O'zbek adabiyoti xazinasida o'ziga xos uslubi, chuqur milliy ruh va hayotiy haqiqatga sodiqligi bilan alohida o'rin egallagan yozuvchilardan biri — O'tkir Hoshimovdir. Uning asarlari nafaqat o'zbek xalqining ichki kechinmalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etgani bilan, balki xalqona tilda ifodalaning lingvopoetik mazmuni bilan ham o'quvchi qalbiga chuqur kirib boradi. Shuning uchun ham Hoshimov ijodini boshqa tillarga, xususan rus tiliga tarjima qilish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot va adabiy tafakkur darajasini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Rus tiliga tarjima qilingan O'tkir Hoshimov asarlarining lingvopoetik tahlili bugungi kunda tarjima-shunoslik sohasida dolzarb masalalardan biridir. Asarda aks etgan milliy obrazlar, iboraviy ifodalar, poetik metaforalar va uslubiy figura vositalarining boshqa tildagi ifodalanish darajasi o'zbek tilining boy ma'naviy-estetik qatlamini to'liq yetkazish imkonini beradi yoki aksincha, ularning noadekvat tarjimasi matnning semantik boyligini susaytirishi mumkin.

Mazkur tadqiqot O'tkir Hoshimovning rus tiliga tarjima qilingan ayrim asarlari misolida lingvopoetik vositalar va milliy obrazlarning tarjima jarayonida qanday o'zgarishga uchrashi, ularning semantik va uslubiy transformatsiya xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Bu esa, bir tomondan, tarjimonning professional yondashuvi va estetik didiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarjima qilinayotgan tilning semantik imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot ob'ekti sifatida O'tkir Hoshimovning rus tiliga tarjima qilingan nasriy asarlari tanlab olingan bo'lib, undagi milliy obrazlar tizimi, lingvopoetik vositalar va madaniyatlararo konno-



tatsiyalarning ifodalanish darajasi asosiy tahlil nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali milliy adabiy merosni jahon miqyosida tanitishda tarjima jarayonining o'zni, muammolari va istiqbollari chuqur yoritiladi.

O'tkir Hoshimov asarlarini rus tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvopoetik xususiyatlar bir necha jihatdan tahlil qilindi. Tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar – milliy kolorit, badiiy obrazlar, xalqona iboralar va madaniy tafovutlar o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, milliy kolorit va xalqona iboralar tarjimaning murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi. O'tkir Hoshimov asarlarida xalqona nutq va metaforalarga keng o'rin berilgan bo'lib, ularni rus tiliga mos tarzda yetkazish doim ham oson bo'lmaydi. Masalan, "qirq uyga xabar berish", "tushlik qilib kelish", "hijolat bo'lib qoldi" kabi iboralar bevosita tarjima qilinganda, rus tilidagi o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli, tarjimon bunday iboralarni tafsiriy tarjima yoki funksional ekvivalent yaratish orqali yetkazishga harakat qilishi lozim.

Ikkinchidan, badiiy obrazlarning o'ziga xosligi tarjima jarayonida muayyan o'zgarishlarni talab qiladi. O'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan tasviriy ifodalar, milliy o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi badiiy vositalar rus tilida to'g'ridan-to'g'ri o'z aksini topmasligi mumkin. Masalan, Hoshimov asarlaridagi "suv kelsa simirib ichadigan, ketganda iziga tupuradiganlar" iborasi metaforik jihatdan chuqur ma'no kasb etadi va bu rus tilida oddiy so'zma-so'z tarjimada o'z ta'sir kuchini yo'qotishi mumkin. Bu holatda interpretatsion tarjima usuli orqali asarning ruhini saqlashga harakat qilinishi zarur.

Uchinchidan, tarjimashunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan ekvivalentlik masalasi dolzarbdir. Tarjimada E. Naydaning "dinamik ekvivalentlik" tamoyili ishlatilsa, matn asliyatga yaqin holatda saqlanadi. Lekin ba'zan tarjimon A. Fyodorov va L. Barkhudarov ta'kidlaganidek, matnni rus tilidagi o'quvchiga tushunarli qilish uchun kontekstual moslashtirish usulidan foydalanishi kerak bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek mentalitetiga xos iboralar, mahalliy leksik birliklar, shevaga oid so'zlar va madaniy o'ziga xosliklar tarjima jarayonida o'zgarishga uchraydi.

To'rtinchidan, tarjimonning lingvokulturologik kompetensiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Tarjimon faqatgina til bilimiga ega bo'lib qolmasdan, balki ikki millat madaniyati va mentalitetini ham yaxshi tushunishi kerak. Bu Hoshimovning asarlarini tarjima qilishda ayniqsa dolzarb bo'lib, tarjimon milliy ruh va badiiy tasvirni yo'qotmagan holda asarning mazmunini yetkazishi lozim. R. Yakobson va G. Gachechiladze tarjimonning madaniy tafovutlarni hisobga olishi kerakligini ta'kidlagan bo'lsa, Komissarov tarjimaning kontekstual ekvivalentga asoslanganligini muhim deb hisoblaydi.

Beshinchidan, tarjimada uslubiy o'zgarishlar va pragmatik tafovutlar kuzatiladi. O'tkir Hoshimov asarlarining tarjimasida ayrim hollarda jumlar tuzilishi va uslubining o'zgarishi kuzatiladi. Masalan, o'zbek tilidagi gaplar ko'pincha dialogga asoslangan bo'lib, ular xalqona va og'zaki nutq unsurlarini saqlab qoladi. Rus tilida esa bunday iboralar ba'zan kitobiyroq yoki grammatik jihatdan to'liq bo'lishi talab qilinadi. Natijada, asliyatdagi emotsional ta'sir yoki yumor tarjimada yo'qolishi mumkin.

O'tkir Hoshimov asarlarini rus tiliga tarjima qilish jarayonida lingvopoetik jihatlar muhim rol o'ynaydi. Tarjima jarayonida muallifning xalqona iborolari, badiiy obrazlari va milliy koloritini yetkazish qiyinchilik tug'diradi. Chunki o'zbek tilidagi xalq maqollari, iboralar, poetik tasvirlar va ma'lum bir madaniy kontekstga asoslangan leksik birliklarning bevosita rus tilidagi ekvivalentlari mavjud emas. Bu esa tarjimonni muayyan ijodiy izlanishlarga majbur qiladi. Odatda, bunday elementlarni tarjima qilishda uchta asosiy yondashuvdan foydalaniladi: to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish, tushuntirish orqali tarjima qilish yoki ma'lum bir kontekstual moslashtirish orqali o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlash.

Xulosa. O'tkir Hoshimov asarlarini rus tiliga tarjima qilish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy va badiiy jihatlarini ham chuqur anglashni talab qiladi. Uning asarlarida xalqona iboralar, metaforalar, milliy koloritga ega leksik birliklar va badiiy obrazlar keng qo'llanilgan bo'lib, ularni bevosita tarjima qilish ko'p hollarda matnning poetik mazmunini va emotsional ta'sirini yo'qotishga olib keladi. Shu sababli, tarjimon faqatgina so'zma-so'z tarjimaga tayanmay, balki



ma'no va uslubni saqlash uchun kontekstual moslashtirish, ekvivalent topish va interpretatsion yondashuv kabi strategiyalardan foydalanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Виноградов, В. С. (2001). Перевод: Общие и лексико-стилистические вопросы. Москва: Высшая школа.
2. Гачечиладзе, Г. (1982). Художественный перевод и литературные связи. Москва: Издательство литературы.
3. Комиссаров, В. Н. (1990). Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва: Высшая школа.
4. Найда, Ю. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: Brill.
5. Якобсон, Р. (1959). On Linguistic Aspects of Translation. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Хошимов, Ў. (1984). Dunyoning ishlari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
7. Назаров, Б. (2017). Миллий менталитет ва бадиий матнни таржима қилиш муаммолари. Toshkent: Фан ва технологиялар.



Sadoqat Fayzulloyeva Furqat qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA AKTNI QO'LLASHNING METODIK TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llashning metodik tamoyillari yoritilgan. Kimyo darslarini interaktiv vositalar yordamida o'qitish, raqamli resurslar va virtual laboratoriyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari va tajribaviy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada AKT asosida darslarni rejalashtirish, vizual materiallar yaratish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo ta'limi, metodik tamoyillar, interaktiv o'qitish, raqamli resurslar, virtual laboratoriya, umumta'lim maktabi.

Аннотация. В статье рассматриваются методические принципы интеграции информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процесс преподавания химии в общеобразовательной школе. Проанализированы педагогические подходы к использованию цифровых ресурсов, виртуальных лабораторий, мультимедийных презентаций и интерактивных платформ. Особое внимание уделено формированию у учащихся устойчивого интереса к предмету, развитию исследовательских и практических навыков, а также повышению эффективности учебного процесса. Представлены рекомендации по выбору и применению ИКТ в зависимости от целей урока, уровня подготовки учащихся и содержания учебного материала.

Ключевые слова: ИКТ, преподавание химии, средняя школа, методические принципы, цифровые образовательные ресурсы, виртуальная лаборатория, интерактивное обучение, образовательные технологии.

Abstract. This article explores the methodological principles of integrating Information and Communication Technologies (ICT) into the teaching of chemistry in secondary schools. It highlights the role of digital tools-such as virtual laboratories, multimedia presentations, and interactive platforms-in enhancing the effectiveness of the learning process. The study emphasizes how ICT supports students' conceptual understanding, fosters independent and inquiry-based learning, and increases motivation and engagement. Based on pedagogical analysis, the article provides practical recommendations for selecting and applying ICT tools in alignment with lesson objectives, student proficiency levels, and curricular content.

Keywords; ICT, chemistry education, secondary school, methodological principles, digital resources, virtual laboratory, interactive learning, educational technology.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, kimyo fanini o'qitishda AKTdan foydalanish darslarning samaradorligini oshirish, murakkab kimyoviy jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish va o'quvchilarning laboratoriya ishlariga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Kimyo fani – nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikma va tajriba talab qiluvchi fanlardan biridir. Shu bois, uni o'qitishda interaktiv dars uslublari, virtual laboratoriyalar, simulatsiyalar, multimediali taqdimotlar kabi vositalardan foydalanish zarur.



Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda kimyo ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni va ahamiyati yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda [7,9]. Ushbu tadqiqotlarda AKT vositalaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Jumladan, A.X. Yo'ldoshev (2020) [4] o'z tadqiqotida kimyo fanini o'qitishda interaktiv ta'lim usullarining ahamiyatini ta'kidlab, raqamli resurslar, test tizimlari va onlayn platformalarning dars jarayoniga integratsiyasining ijobiy jihatlarini ochib bergan. Unga ko'ra, AKT yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularni faollikka undaydi.

M.M. Qodirova (2019) [5] esa, kimyo darslarida virtual laboratoriyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning tajribaviy faoliyatini shakllantirish bo'yicha qator tavsiyalarni bergan. Muallifning fikriga ko'ra, real sharoitda bajarilishi qiyin bo'lgan tajribalarni simulyatsiya qilish o'quvchilar bilimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, PISA [8] xalqaro tadqiqotlari natijalari ham o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda AKT vositalarining ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba asosida olib borilgan tadqiqotlar, masalan, M. Jonson (2018) [10] tomonidan taqdim etilgan ishlarda AKT yordamida fanlararo integratsiyani ta'minlash, o'quv motivatsiyasini oshirish va fanlarni osonroq tushunishga erishish yo'llari yoritilgan.

Respublikamizda ham AKTdan foydalanish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan[1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" [3] strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kimyo ta'limida AKTdan samarali foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratadi va o'qituvchining darsni interaktiv, mazmunli va samarali tashkil etishiga ko'maklashadi.

Metod va metodologiya. Ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llashning metodik tamoyillarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida turli ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini quyidagilar tashkil etadi:

Tahlil (analiz) va sintez – mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat standartlari, o'quv dasturlari hamda ilg'or tajribalar o'rganilib, ulardan umumiy metodik xulosalar chiqarildi.

Taqqoslash va solishtirish – kimyo fanini o'qitishda AKTdan foydalanish bo'yicha an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar solishtirilib, ularning afzallik va kamchilik tomonlari aniqlab chiqildi.



Empirik metodlar – o‘rta maktablarda kimyo fanidan foydalanilayotgan AKT vositalarining holati, ulardan foydalanish samaradorligi bo‘yicha amaliy kuzatuvlar, suhbatlar va anketalar o‘tkazildi.

Eksperimental metod – kimyo darslarida interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va boshqa AKT vositalarini qo‘llash asosida darslar tashkil etilib, ularning o‘quvchilarning bilim darajasiga ta’siri o‘rganildi.

Pedagogik tajriba – AKT asosidagi darslarning samaradorligini baholash uchun tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasida taqqoslama tahlillar qilindi.

Metodologik yondashuv sifatida konstruktivizm va faoliyatga asoslangan ta’lim nazariyalari asos qilib olindi. Bu yondashuvlar o‘quvchini faollikka chorlash, ularning mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish va tajriba asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Ushbu metod va metodologik asoslar tadqiqotning ilmiy aniqligi, izchilligi hamda amaliy foydaliligi ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotlar natijalari. O‘tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo‘llash quyidagi ijobiy samarlarni bergani aniqlandi:

O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshdi – Interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar, videodarslar va virtual laboratoriyalar yordamida tashkil etilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan o‘quvchilar tomonidan yuqori darajada qiziqish bilan qabul qilindi.

Nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmaga aylanishi tezlashdi – AKT asosida o‘tilgan darslar orqali o‘quvchilar kimyoviy jarayonlarni vizual ravishda ko‘rib, ularni yaxshiroq anglab oldilar. Virtual tajribalar orqali real sharoitda bajarilishi qiyin bo‘lgan tajribalarni o‘zlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlandi – Elektron darsliklar, onlayn testlar, masofaviy ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilarning mustaqil ishlash, axborot qidirish va uni tahlil qilish ko‘nikmalari oshdi.

O‘qituvchilarning darsni loyihalashdagi metodik yondashuvlari takomillashdi – AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘qituvchilar darsni rejalashtirishda ko‘proq ijodkorlik va moslashuvchanlik bilan yondashdilar. Darsda ko‘p funksiyali elektron vositalar (smart doska, onlayn test tizimlari, interaktiv simulyatorlar) qo‘llanildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari – Tajriba guruhida AKT asosida o‘qitilgan o‘quvchilar bilan nazorat guruhi (an’anaviy usulda o‘qitilganlar) o‘rtasida bilim saviyasi va test natijalari bo‘yicha sezilarli farq kuzatildi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning baholari o‘rtacha 15–20% yuqori bo‘ldi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kimyo fanini o‘qitishda AKTdan maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi hamda ularning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Muhokama. Umumta’lim maktablarida kimyo darslarida AKTning asosiy vositalari sifatida interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va onlayn test tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Bu vositalar yordamida murakkab kimyoviy jarayonlarni tushuntirish osonlashadi, shuningdek, o‘quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv darslar tashkil etish mumkin bo‘ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlari kimyo fanini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, interaktiv doskalar o‘quv jarayonini yanada jonli, ko‘rgazmali va interaktiv qilishga yordam beradi. Ular yordamida o‘qituvchi kimyoviy formulalar, reaksiyalar, jadval va diagrammalarni tezkor va aniq taqdim etib, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishi osonlashadi.



Multimedia taqdimotlar esa, murakkab kimyoviy tushunchalarni vizual va audiovizual shaklda ifodalashga imkon beradi. Animatsiyalar, videolar va grafikalar yordamida o'quvchilar kimyoviy jarayonlarning mohiyatini yaxshiroq tushunib oladi, bu esa o'z navbatida bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Virtual laboratoriyalar real sharoitda amalga oshirish qiyin yoki xavfli bo'lgan kimyoviy tajribalarni xavfsiz va qulay muhitda bajarish imkonini yaratadi. O'quvchilar interaktiv tajribalar orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Shunday qilib, interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlar va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda fan bo'yicha chuqurroq tushuncha va qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek, AKTdan foydalanish o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, onlayn manbaalar orqali kimyoviy formulalar, reaksiyalar va tajribalar haqida chuqurroq ma'lumot olishlari mumkin.

Tadqiqot davomida umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bo'yicha olib borilgan amaliy kuzatuvlar, tahlillar va tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, AKT vositalari o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda [11-12]. Ammo ularni samarali qo'llash o'qituvchilardan metodik yondashuv va texnologik savodxonlikni talab qiladi.

Muhokamada asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratildi:

AKTning didaktik imkoniyatlari – Multimediali vositalar, interaktiv simulyatorlar va virtual tajribalar orqali o'quvchilarda murakkab kimyoviy tushunchalarni aniqlashtirish imkoniyati kuchayadi. Bu esa an'anaviy dars metodikasi bilan yetarlicha ta'minlab bo'lmaydigan vizual va tajribaviy yondashuvni ta'minlaydi.

Metodik yondashuvning ahamiyati – AKTdan foydalanishda faqat texnik vositalarning mavjudligi emas, balki ularni to'g'ri pedagogik maqsadlarga yo'naltirish muhimdir. Dars mazmuniga mos, o'quvchining yosh va tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda tanlangan AKT vositalari samaradorlikni oshiradi.

AKTdan foydalanishda mavjud muammolar – Ayrim umumta'lim maktablarida texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o'qituvchilarning AKT bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi, internet tezligining sustligi kabi omillar bu jarayonni sekinlashtirayotganini ko'rsatmoqda.

Innovatsion metodlar integratsiyasi – Faoliyatga asoslangan, muammoli ta'lim, loyiha metodlari kabi ilg'or pedagogik yondashuvlar AKT bilan uyg'unlashganda ta'lim sifati yanada oshadi. Jumladan, kimyoviy eksperimentlar bo'yicha loyiha ishlari va virtual laboratoriyalarni birlashtirish o'quvchilarni izlanishga yo'naltiradi.

Natijaviylik – Tajriba-sinov darslari shuni ko'rsatdiki, AKT asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va kimyoga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Shunday qilib, AKTni kimyo ta'limiga samarali integratsiyalash metodik tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilgandagina uning natijadorligi yuqori bo'ladi. Muhimi, bu yondashuv o'qituvchining roli va pedagogik mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar, kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

AKT vositalarini kimyo ta'limiga joriy etish – o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni chuqurroq anglash va ularni amaliyot bilan bog'lash imkonini yarata-di.



Metodik tamoyillarga asoslangan yondashuv – AKTni qo‘llashda samarali natijaga erishish uchun o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va dars mavzulariga mos ravishda metodik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirish muhim hisoblanadi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar – real tajribalarning xavfsiz, qulay va samarali muqobili bo‘lib, o‘quvchilarni izlanishga, mustaqil fikrlashga va ilmiy tajriba yuritishga yo‘naltiradi.

O‘qituvchilarning texnologik va metodik tayyorgarligi – dars jarayonida AKTdan to‘g‘ri foydalanish uchun o‘qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslari orqali yangilanishlari zarur.

Takliflar:

Kimyo fanidan raqamli o‘quv resurslarini kengaytirish – interaktiv darsliklar, elektron testlar, videodarslar va animatsion laboratoriyalarni yaratish va ta‘lim muassasalariga yetkazish.

O‘qituvchilar uchun AKT bo‘yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish – metodik qo‘llanmalar, platformalar va zamonaviy ta‘lim texnologiyalari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy salohiyatini oshirish.

Maktablarni zarur texnik vositalar bilan ta‘minlash – kompyuterlar, proyektorlar, interaktiv doskalar, barqaror internet tarmog‘i va boshqa texnik infratuzilmalarni rivojlantirish.

AKT asosida integratsiyalashgan darslarni ommalashtirish – kimyo fanini boshqa tabiiy fanlar bilan uyg‘unlashtirib, AKT orqali fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish.

Nazorat va monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish – AKT asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini baholash uchun indikatorlar asosida tahlil qilish va ilg‘or tajribalarni umumlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538- sonli “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF-6079- sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
4. Yo‘ldoshev A.X. Kimyo ta‘limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020.
5. Qodirova M.M. Kimyo fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarning o‘rni. – “Ta‘limda innovatsiyalar” ilmiy-amaliy jurnal. 2019, №4, 45–49-betlar.
6. Niyozov B.N., Abdujabborova G.T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
7. UNESCO. ICT in Education: A Critical Review and Guidelines for Implementation. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2020.
8. Johnson, M. (2018). The Role of ICT in Enhancing Science Education. – Journal of Educational Technology Research, Vol. 25, Issue 2, pp. 112–127.
9. Axmedova Z. O‘rta ta‘limda AKTni qo‘llashning pedagogik asoslari. – “Ilm va taraqqiyot” ilmiy jurnali. 2022, №2(10), 34–39-betlar.
10. PISA (Programme for International Student Assessment). (2021). 21st Century Skills and Technology Integration in Science Education. OECD Publishing.



Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KONTENT BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlari (PCK) shakllantirishga qaratilgan didaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. Avvalo, pedagogik kontent bilimlari konsepsiyasi va uning o'quv jarayonidagi roli - nazariy bilimlar va ularni dars metodikasiga integratsiya qilish kompetensiyasi - ta'riflanadi. Keyin, masala yyechish va model-based learning, loyiha asosida o'qitish hamda interaktiv va raqamli vositalardan foydalanish orqali PCKni rivojlantirish usullari yoritiladi. Shuningdek, tajriba-o'rganuvchan yondashuv, reflektiv mashg'ulotlar va hamkasblar bilan hamkorlik asosida professional guruhlarda ta'lim seminarlari tashkil etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak matematika o'qituvchilari, pedagogik kontent bilimlari, didaktik yondashuvlar, masala yyechish, loyiha asosida o'qitish, interaktiv o'qitish, raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulotlar.

Аннотация. В статье анализируются дидактические подходы к формированию педагогических контентных знаний (PCK) у будущих учителей математики. Сначала даётся определение концепции педагогических контентных знаний и их роли в учебном процессе как компетенции по интеграции теоретических знаний в методику преподавания. Затем рассматриваются методы развития PCK через решение задач и обучение на основе моделей, проектно-ориентированное обучение, а также использование интерактивных и цифровых инструментов. Кроме того, описываются механизмы превращения теоретических знаний в практические умения у будущих педагогов посредством опытно-экспериментального подхода, рефлексивных занятий и образовательных семинаров в рамках профессиональных групп на основе сотрудничества с коллегами.

Ключевые слова: будущие учителя математики, педагогические контентные знания, дидактические подходы, решение задач, обучение на основе проектов, интерактивное обучение, цифровые инструменты, рефлексивные занятия.

Annotation: This article examines didactic approaches to developing pedagogical content knowledge (PCK) in prospective mathematics teachers. First, it defines the concept of PCK and its role in the learning process as the competency to integrate theoretical knowledge into instructional methods. Next, it explores methods for enhancing PCK through problem solving and model-based learning, project-based teaching, and the use of interactive and digital tools. It also outlines mechanisms for converting future teachers' theoretical knowledge into practical skills via an experiential-experimental approach, reflective activities, and professional group seminars based on peer collaboration.

Keywords: prospective mathematics teachers, pedagogical content knowledge, didactic approaches, problem solving, project-based learning, interactive teaching, digital tools, reflective activities.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida matematika fanini chuqur va samarali o'qitish pedagoglarning pedagogik kontent bilimlariga (PCK) bog'liq bo'lib, ayniqsa bo'lajak matematika o'qituvchilarida bu kompetensiya yetuk darajada shakllanishi muhimdir. PCK kontsepsiyasi professor Shulman tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u o'qituvchining nazariy matematik bilimlarni dars metodikasiga moslashtirish, murakkab kontsepsiyalarni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish va o'qitish jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini anglatadi.



Bugungi kunda ta'lim sohasida STEAM yondashuvi, raqamli transformatsiya va masala yyechishga yo'naltirilgan o'quv metodlari kengayishi bilan birga, an'anaviy didaktik metodlardan tashqari innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Model-based learning, loyiha asosida o'qitish va interaktiv raqamli vositalardan foydalanish bo'lajak pedagoglarga o'z PCK darajasini yanada boyitish, o'quvchilarning matematika tushunchalarini mustahkamlash va dars samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda tajriba-organuvchan yondashuv va reflektiv mashg'ulotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ular o'z o'qitish strategiyalarini tahlil qilib, xatolarni aniqlash va takomillashtirish jarayonida PCKni mustahkamlaydi. Hamkasblar bilan professional guruh seminarlarini tashkil etish esa pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, yangicha yechimlar izlash va dars modellarini sinab ko'rishda yordam beradi.

Ushbu maqola bo'lajak matematika o'qituvchilarining PCKni shakllantirishga yo'naltirilgan asosiy didaktik yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Maqsad - masala yyechish, model-based learning, loyiha asosida o'qitish, interaktiv va raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulotlar hamda hamkasblar bilan hamkorlik orqali pedagogik kontent bilimlarini rivojlantirish metodikasi va samaradorligini tahlil qilishdir.

Matematika o'qitish jarayonida PCK'ning asosiy vazifasi nafaqat mavzu maydonidagi bilimlarni egallash, balki ularni muayyan o'quv kontekstiga moslab, pedagogik jarayonda qo'llay olishdir. Bo'lajak o'qituvchilar shu bois dars mazmunini chuqur tushungan holda, murakkab matematik tushunchalarni turli yoshdagi, turli qobiliyat va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilarga aniq va qiziqarli usulda yetkazish mexanizmlarini o'zlashtirishi zarur. Bu qirra o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash, misol va vazifalarni darajalashtirish, hamda o'quv jarayonida yuzaga keladigan keng tarqalgan xatolarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Xalqaro tadqiqotlar (Ball, Thames & Phelps, 2008; Shulman, 1987) shuni ko'rsatadiki, kuchli PCK egasi bo'lgan o'qituvchilar o'z darslarini doimiy tahlil qilib, real amaliyotga moslab qayta tashkil etish orqali o'quvchilar natijalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimidagi o'quv dasturlari va baholash usullarining xususiyatlari PCK'ni rivojlantirish yondashuvlariga ham ta'sir ko'rsatadi: masalan, respublikamizda yangi o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritilayotgani, kompetensiyalarga yo'naltirilgan baholash tizimi joriy etilayotgani bo'lajak o'qituvchilardan yanada moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kontent bilimlari (PCK) tushunchasi ilk bor Shulman (1986) tomonidan ilgari surilib, u o'qituvchining nazariy bilimlarni dars jarayonida amaliyotga moslashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Shulman'ning asarlari PCK'ni uch tarkibiy qismlarga – kontent bilimlari, pedagogik bilimlar va kontekstual bilimlarga ajratib ko'rsatadi, bu keyingi tadqiqotlarda matematika sohasiga moslashdi.

Matematika PCK'ini chuqurlashtirish maqsadida Ball, Thames va Phelps (2008) "Content Knowledge for Teaching" modelini ishlab chiqishdi. Ular matematika o'qituvchilari uchun kontent bilimlari to'rtta subsahifaga – matematika tili, talabalarning tushunchalari, vakillar modeli va matematik ma'nolarini ochish – bo'linishini taklif qiladi. Ma va Kishor (1997) esa o'qituvchilarda fundamental matematik tushunchalarni chuqur egallash masalasini o'rganib, PCK o'quvchilarning xatolarini oldindan aniqlash va bartaraf etishda hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.

Didaktik yondashuvlar qatorida model-based learning (MBL) uslubi Lesh va Doerr (2003) tomonidan ilgari surildi. Ular MBL'ni murakkab real muammolarni model-chiqarish vazifalari orqali o'qituvchilarga ishlab chiqish va boshqarish mexanizmlarini o'rgatishga qaratadilar. Shuningdek, Schoenfeld (1985) masala yyechish yondashuvida o'qituvchilarning problem-solving jarayonini namoyish etish va strategiyalarni modelling qilish zarurligini ko'rsatdi.

Loyihaga asoslangan o'qitish (Project-Based Learning, Thomas, 2000) va Papert (1980) ning "microworlds" kontseptualizatsiyalari raqamli vositalarni integratsiya qilish orqali PCKni boyitadi. Thomas loyiha davomida o'qituvchilarning dars mazmunini real kontekstga bog'lash orqali dars samaradorligini oshirishini dalillaydi.



Reflektiv mashg'ulotlar va professional guruh seminarlari sohasida Schön (1983) "reflection-in-action" tushunchasi pedagoglarni o'z amaliyotini tahlil qilishga undasa, Loughran (2002) hamkasblar bilan aloqa va tajriba almashish orqali PCK'ni chuqurlashtirish mexanizmlarini tavsiyalaydi. Vescio, Ross va Adams (2008) professional hamjamiyatlar (PLC) modeli ham pedagoglarning birgalikda o'rganishi va PCKni rivojlantirishda samarali ekanini ta'kidlaydi.

Oxir-oqibat, adabiyotlar PCK shakllanishida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar, texnologiya integratsiyasi, reflektiv amaliyot va hamkasblar bilan hamkorlik muhimligini ko'rsatadi. Kelajak matematika o'qituvchilarini tayyorlashda ushbu tadqiqotlar asosida kompleks didaktik strategiyalarni yaratish zarur.

Muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik kontent bilimlarini shakllantirish (PCK) bo'yicha didaktik yondashuvlarning samaradorligi ularning nazariy va amaliy komponentlarni uyg'unlashtirish qobiliyatiga bog'liq. Shulman (1986) ta'kidlaganidek, faqat matematik nazariy bilimlarga ega bo'lish yetarli emas; o'qituvchi ularni qanday qilib o'quv jarayoniga moslab, murakkab konsepsiyalarni turli yosh va darajadagi o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazishini ham egallashi zarur.

Ball, Thames va Phelps (2008) modeli PCK tarkibiga matematik til, talabalarning tushunchalari, vakillar modeli va matematik ma'nolarni ochishni kiritib, kontent va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlikni boyitdi. Ushbu yondashuv ta'lim-tadqiqot amaliyotida masala yyechish strategiyalarini nafaqat namoyish etish, balki o'quvchilarni o'ylash jarayoniga jalb etishga ham imkon beradi. Schoenfeld (1985) masala yyechish jarayonini modellash usullari PCKni o'quvchilarning xatolarini oldindan aniqlash va bartaraf etish mexanizmini kuchaytirishini ko'rsatadi.

Model-based learning (Lesh & Doerr, 2003) va loyiha asosida o'qitish (Thomas, 2000; Papert, 1980) yondashuvlari o'qituvchilarga real hayotiy vaziyatlarni matematik modellarga aylantirish jarayonida nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazish va moslashtirish imkonini beradi. Raqamli vositalar bilan birgalikda interaktiv o'qitish masalan, dynamic geometry software yoki microworlds muhitida o'quvchilarni kashfiyot va eksperimentga undaydi, bu esa PCKni amaliy ko'nikmaga aylantirishning eng samarali shakli hisoblanadi.

Shuningdek, reflektiv mashg'ulotlar (Schön, 1983) va professional o'quvchi jamoalari (Vescio, Ross & Adams, 2008; Loughran, 2002) o'qituvchilarning o'z amaliyotini doimiy tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi hamda hamkasblar ta'limidan o'rganishi orqali PCKni chuqurlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Bu yondashuvlarning o'zaro uzviyligi, ya'ni masalani modelga aylantirish, uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish va natijalarni reflektiv tarzda ko'rib chiqish - PCKni mustahkamlashda yetakchi mexanizmga aylanadi.

Biroq adabiyotlarda integrativ, uzoq muddatli tadqiqotlar yetishmasligi ham aniqlanadi. Ko'pchilik yondashuvlar eksperimental laboratoriya sharoitida qisqa muddatli sinovlardan iborat, real sinf muhitidagi murakkab pedagogik kontekstni hisobga olmaydi. Shu ma'noda, kelajak tadqiqotlari PCK shakllanishini kuzatish uchun sinfdagi amaliy intervensiyalarni, raqamli va an'anaviy metodlarni birgalikda qo'llovchi pilot dasturlarni va ularning ta'sirini uzoq muddat kuzatish dizaynlarini o'z ichiga olishi muhim.

Tavsiyalar:

1. Integratsiyalashgan PCK-modullarini joriy eting. Masala yyechish, model-based learning, loyiha-asosida o'qitish va raqamli vositalarni bitta modulga birlashtirib, amaliyotga yo'naltirilgan trening dasturlari ishlab chiqing.
2. Micro-teaching sessiyalarini doimiy tashkil eting. Har bir o'qituvchi o'z darsini qisqa video qilib yozsin, keyin reflektiv mashg'ulotlarda hamkasblar bilan tahlil qilsin.
3. Reflektiv jurnal yuritishni majburiy qiling. Har mashg'ulotdan so'ng o'qituvchi o'z pedagogik tanlovlarini, kuzatilgan xatolar va o'rgangan saboqlarini yozib borsin.
4. Professional o'quv jamoalarini (PLC) faol ishlating. Seminarlarda nazariy bilim almashish, yangi dars modellarini sinash va mentor-mentee uchrashuvlari orqali PCKni chuqurlashtiring.



5. Doimiy monitoring va baholash tizimini yo'lga qo'ying. Pre-post test natijalarini 6 oyda bir o'tkazib, PCK o'sishini statistik jihatdan kuzatib boring.

6. Raqamli platformalar va microworlds (GeoGebra, Cabri, Python-based microworlds) foydalanishni kengaytiring. Ular yordamida o'quvchilarning tushunchalarini vizual va interaktiv tarzda mustahkamlang.

7. Madaniy-lingvistik moslashuvga e'tibor qaring. Yaratilayotgan didaktik material va vositalarni O'zbek maktablari sharoitiga moslab tarjima, lokalizatsiya va testlardan o'tkazing.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini shakllantirishda turli didaktik yondashuvlarni integrativ tarzda qo'llash eng samarali natijalar beradi. Masala yyechish strategiyalari o'qituvchilarga mavzuni nazariy jihatdan chuqur tushunishga, model-based learning esa murakkab kontseptsiyalarni konkret model-larga aylantirib talabalarga ochiq tushuntirishga yordam beradi. Loyiha asosida o'qitish va inter-aktiv raqamli vositalar (GeoGebra, microworlds) o'quvchilarning kashfiyot va eksperiment im-koniyatlarini kengaytirib, PCKni amaliy ko'nikmaga aylantiradi. Reflektiv mashg'ulotlar va pro-fessional hamkorlik esa o'qituvchilarning doimiy o'zini tahlil qilishini rag'batlantirib, ularning pedagogik qarorlarini asoslash va takomillashtirish mexanizmlarini mustahkamlaydi. Ushbu yon-dashuvlarning uzviy uyg'unligi - nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, raqamli integratsiya va hamkasblar bilan ishlash - PCKni rivojlantirishda yetakchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shulman, L. S. (1986). Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. *Educational Researcher*, 15(2), 4–14.
2. Ball, D. L., Thames, M. H., & Phelps, G. (2008). Content Knowledge for Teaching: What Makes It Special? *Journal of Teacher Education*, 59(5), 389–407.
3. Ma, L., & Kishor, N. (1997). Assessing the Relationship Between Attitude Toward Mathematics and Achievement in Mathematics: A Meta-Analysis. *Journal for Research in Mathematics Education*, 28(1), 26–47.
4. Lesh, R., & Doerr, H. M. (2003). Foundations of the Development of Students' and Teachers' Thinking. In J. Kilpatrick, W. G. Martin, & D. Schifter (Eds.), *A Research Companion to Principles and Standards for School Mathematics* (pp. 39–70). Reston, VA: NCTM.
5. Schoenfeld, A. H. (1985). *Mathematical Problem Solving*. Orlando, FL: Academic Press.
6. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. Minneapolis, MN: The Autodesk Foundation.
7. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. New York, NY: Basic Books.
8. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York, NY: Basic Books.
9. Loughran, J. (2002). Effective Reflective Practice: In Search of Meaning in Learning About Teaching. *Journal of Teacher Education*, 53(1), 33–43.
10. Vescio, V., Ross, D., & Adams, A. (2008). A Review of Research on the Impact of Professional Learning Communities on Teaching Practice and Student Learning. *Teaching and Teacher Education*, 24(1), 80–91.



Adilbekova Manzura Usenbek qizi,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning shaxslararo munosabat ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Maktabgacha yosh davri - bu bolaning ijtimoiylashuvi boshlanadigan, emotsional va kommunikativ salohiyati rivojlanadigan muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda bolalarni ijobiy shaxslararo munosabatlarga yo'naltirish zaruriy hisoblanadi. Tadqiqotda bolalar o'rtasida hamkorlik, navbat kutish, fikr almashish, muammoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar tahlil etiladi. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarga o'rgatish jarayonida o'yin texnologiyalari, dramatik mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va vizual vositalarning ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchilar, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy ko'nikmalar, emotsional rivojlanish, metodika, rolli o'yinlar, o'yin texnologiyalari, kommunikativ madaniyat, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психолого-педагогические основы и методические подходы к формированию навыков межличностного общения у воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Дошкольный возраст является важным этапом, на котором начинается социализация ребенка, формируются его эмоциональные и коммуникативные способности, поэтому именно в этот период важно направить детей на освоение позитивных форм межличностного взаимодействия. В исследовании анализируются методики, направленные на развитие у детей навыков сотрудничества, умения ждать очереди, обмениваться мнениями и мирно решать проблемные ситуации. Также рассматривается влияние игровых технологий, драматических упражнений, ролевых игр и визуальных средств в процессе обучения межличностному общению.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитанники, межличностные отношения, социальные навыки, эмоциональное развитие, методика, ролевые игры, игровые технологии, коммуникативная культура, педагогический подход.

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical foundations and methodological approaches to developing interpersonal communication skills in preschool educational institutions. The preschool period is a crucial stage in which a child begins to socialize and develops emotional and communicative capacities. Therefore, it is essential to guide children toward acquiring positive interpersonal relationships during this period. The study examines methodologies aimed at fostering skills such as cooperation, taking turns, sharing opinions, and resolving conflicts peacefully among children. Additionally, the role of play-based technologies, dramatic activities, role-playing games, and visual tools in teaching interpersonal relations is also explored.

Keywords: preschool education, pupils, interpersonal relations, social skills, emotional development, methodology, role-playing games, play-based technologies, communicative culture, pedagogical approach.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda bolalarning ijtimoiy faoliyati va kommunikativ madaniyati ularning shaxsiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri - bu bola hayotida shaxslararo munosabatlarning dastlabki shakllari vujudga keladigan, o'zaro muloqot, hissiy javob va ijtimoiy rollarni anglash jarayonlari boshlanadigan eng muhim bosqichdir. Bolaning bu bosqichdagi tajribalari uning keyingi ijtimoiy hayoti va shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamkorlik, empatiya, murosaga kelish, navbat kutish va muloqot madaniyati kabi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi zarur. Chunki bu davrda shakllangan ijobiy shaxslararo munosabatlar modeli bola maktabga tayyor bo'lishida, tengdoshlar guruhiga moslashishida va o'zini jamiyatda tutishida muhim tayanch sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning metodik asoslari, pedagogik sharoitlari va samarali yondashuvlari tahlil qi-



linadi. Jumladan, o'yin faoliyati, rolli o'yinlar, dramatik mashg'ulotlar, vizual vositalar yordamida shaxslararo munosabatlarga o'rgatishning samarali usullari yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bolalarda ijtimoiy-emosional rivojlanishni ta'minlash orqali sog'lom jamiyat fuqarosini tarbiyalashga xizmat qiluvchi poydevor mustahkamlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy muloqotdagi murakkabliklar va individualizmning kuchayishi sharoitida yosh avlodni ijtimoiy-emosional jihatdan barqaror va shaxslararo munosabatlarda faol bo'lgan etib tarbiyalash dolzarb muammolardan biriga aylangan. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi – bu bola shaxsining asosiy ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadigan, tengdoshlari bilan muloqot o'rnatish, o'z hissiyotlarini ifoda etish va boshqalarni anglash qobiliyatlari rivojlanadigan eng sezgir davr hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshda ijtimoiy muloqotga oid ko'nikmalar yetarlicha shakllanmagan bolalar keyinchalik maktab muhitiga moslashishda, guruhli faoliyatda ishtirok etishda, nizoli vaziyatlarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois bolalarni shaxslararo munosabatlarga ongli va tizimli tarzda o'rgatish, bu jarayonni metodik jihatdan asoslash maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda muhim vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, davlat ta'lim standartlari va dasturlarida ham bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan metodik yondashuvlar ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. O'yin faoliyati, rolli o'yinlar, dramatizatsiya va vizual vositalar orqali shaxslararo muloqotni rivojlantirish zamonaviy pedagogik amaliyotda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda shaxslararo munosabatlarda ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish nafaqat pedagogika, balki ijtimoiy psixologiya fanining ham dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxslararo munosabatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida asosiy tarkibiy komponentlardan biri sifatida talqin qilinadi. L.S. Vygotskiy (1934) tomonidan ilgari surilgan madaniy-tarixiy yondashuvga ko'ra, bola rivojida ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlik asosiy mexanizmlardir. Vygotskiy bolalarda oliy psixik funksiyalar, ayniqsa, ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Bu fikrni P.Ya. Galperin, D.B. Elkonin va V.V. Davydovlarning amaliy-tarbiyaviy yondashuvlari yanada chuqurlashtirgan bo'lib, ular o'yin faoliyatining shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdagi rolini asoslab berganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirish borasida E.O. Smirnova va A.L. Venger kabi rus olimlarining tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, shaxslararo munosabatlar bolalarda empatiya, navbat kutish, murosaga kelish va boshqalarni tinglash ko'nikmalari orqali shakllanadi. Ayniqsa, rolli o'yinlar va dramaviy mashg'ulotlar bu ko'nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantiradi.

G'arb psixologiyasida C. Rogers, E. Erikson va D. Golemanlarning ishlarida bolalik davridagi ijtimoiy munosabatlarning shaxsiy rivojlanishga ta'siri chuqur yoritilgan. Jumladan, Goleman (1995) emotsional intellekt nazariyasida bolalardagi emotsional sezgirlik, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy sezuvchanlikni tarbiyalash zarurligini urg'ulaydi. Uning fikriga ko'ra, bu ko'nikmalar aynan maktabgacha ta'lim bosqichida barpo etilishi kerak.

Mahalliy tadqiqotlarda V.M. Karimova (2008), Z.T. Nishanova (2016), T.S. Jo'rayev (2019) kabi olimlar maktabgacha ta'limdagi psixologik tarbiyaning o'ziga xos jihatlari, o'yin asosida o'qitish va muloqotni shakllantirish usullarini asoslab berganlar. Ularning yondashuvlarida milliy qadriyatlar, jamoaviylik, mehr-oqibat va hurmat madaniyatining ahamiyati alohida o'rin tutadi.

Psixologik metodikalardan "Ijtimoiy moslashuv testi", "Bolalar emotsional reaksiyalarini baholash so'rovnomasi", "Kommunikativ faoliyat xaritasi" kabi vositalar bolalarning shaxslararo munosabat darajasini aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Bu metodikalar yordamida pedagoglar bolalarning muloqotdagi ijobiy va salbiy holatlarini aniqlab, individual yondashuv asosida korreksion ishlarni olib borishlari mumkin.



Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlarni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyati, sinfda moslashuvi va shaxsiy yetukligining poydevorini tashkil etadi. Bu esa pedagogik metodika va tarbiya mazmunini chuqur ilmiy asoslash zarurligini taqozo etadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxslararo munosabatlarga o'rgatishning samarali metodik yondashuvlari ularning ijtimoiy-emosional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shaxslararo munosabatlar bolalarning atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olishi, fikrini ifoda etishi, guruhda o'z o'rnini topishi va ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlaydi. Mazkur ko'nikmalar esa nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki bolalarning shaxsiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajasini ham mustahkamlaydi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyati asosida qurilgan ta'lim metodikasi, jumladan rolli o'yinlar, dramaviy mashg'ulotlar, vizual tasvirlar va interaktiv yondashuvlar bolalarda o'zaro muloqotga tayyorlikni oshiradi. Ayniqsa, rolli o'yinlarda bolaning boshqa shaxs nuqtai nazaridan fikrlashi, empatiya va muloqot madaniyati rivojlanadi. Bu jarayonda pedagogning emotsional qo'llab-quvvatlashi, teng huquqli muloqotga asoslangan metodik yondashuvi va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni singdirishdagi tutumi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, mavjud amaliyotda ko'plab muassasalarda bolalarning shaxslararo munosabatlariga yetarlicha e'tibor berilmayotgani kuzatilmoqda. O'qitish jarayonida kognitiv yutuqlar ustuvor qo'yilib, ijtimoiy-emosional rivojlanish ikkinchi planga surilmoqda. Natijada, maktabga tayyorlik jarayonida ayrim bolalar ijtimoiy jihatdan passiv, tashabbuskor emas yoki tengdoshlar bilan o'zaro to'qnashuvlarga moyil holatda bo'lishi mumkin. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining muvozanatini buzadi va bola psixologik iqlimga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Shu munosabat bilan, bolalarda shaxslararo munosabat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalar faqat didaktik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi sifatida baholanishi lozim. Pedagoglar tomonidan individual rivojlanish darajalarini inobatga olgan holda, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ijobiy natijalarni beradi. Ayniqsa, emotsional javob berish, konfliktini tinch hal qilish, fikrini ochiq ifodalash kabi jihatlar o'z vaqtida shakllantirilsa, bola ijtimoiy faollik, muloqotchanlik va jamoaga tegishli bo'lish tuyg'usiga ega bo'ladi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish ijtimoiy-psixologik rivojlanishning ajralmas qismidir. Bu yoshda bola birinchi marta kengroq ijtimoiy guruh - ya'ni tengdoshlar bilan faol muloqotga kirishadi, o'zini jamiyat a'zosi sifatida his eta boshlaydi va shaxsiy fazilatlar shakllana boshlaydi. Tadqiqotda aniqlanishicha, o'zaro hamkorlik, empatiya, muloqot madaniyati va muammoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari aynan maktabgacha davrda shakllanishi zarur bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalardandir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'yin faoliyati, rolli o'yinlar, dramatik mashg'ulotlar, vizual vositalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning ijtimoiy faolligini oshiradi, muloqotga tayyorligini kuchaytiradi va ijobiy shaxslararo munosabatlar poydevorini yaratadi. Shu bois shaxslararo munosabatlarni shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholanishi zarur.

Tavsiyalar:

1. **Maktabgacha ta'lim dasturlarida** shaxslararo munosabat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinli metodik mashg'ulotlarga keng o'rin berilishi maqsadga muvofiq.

2. **Pedagog kadrlar tayyorlash va malaka oshirish** kurslarida bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar chuqur o'rgatilishi lozim.

3. **Rolli o'yinlar, dramatizatsiyalar, guruhiiy loyihalar** va interaktiv mashg'ulotlar orqali bolalar o'rtasida ijtimoiy-emotsional aloqalarni mustahkamlovchi faoliyat turlarini tizimli tashkil qilish zarur.

4. **Tarbiyalanuvchilarni individual psixologik xususiyatlariga qarab differensial yondashuv** asosida muloqotga jalb etish, ijtimoiy jihatdan sust bolalar uchun maxsus trening mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.



5. **Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish**, ya'ni oilaviy muhitda ham shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularga muntazam tushuntirish ishlari olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vygotskiy L.S. (1984). *Psixologiya razvitiya rebenka*. – M.: Pedagogika. – 432 b.
2. Elkonin D.B. (1978). *Psixologiya igri*. – M.: Pedagogika. – 304 b.
3. Galperin P.Ya. (1992). *Vvedeniye v psixologiyu: uchebnoye posobiye*. – M.: Vysshaya shkola. – 311 b.
4. Smirnova E.O., Gudareva E.A. (2004). *Obshcheniye rebenka s rovestnikami: diagnostika, problemy, razvitie*. – M.: Vldos. – 192 b.
5. Venger A.L. (1999). *Psixologiya doshkolnika*. – M.: Akademiya. – 208 b.
6. Goleman D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. – New York: Bantam Books. – 352 p.
7. Erikson E. (1963). *Childhood and Society*. – New York: Norton. – 445 p.
8. Rogers C. (1983). *Freedom to Learn*. – Columbus: Merrill Publishing. – 416 p.
9. Karimova V.M. (2008). *Psixologiya: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti. – 384 b.

Sayfulloyev Oybek Olimovich
Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası izlanuvchisi

AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Maqolada agroturizmni rivojlantirishda davlat va hududiy dasturlarni qabul qilish zaruriyati ilmiy dalillangan, agroturizmga investitsiyalarni jalb etish bo'yicha hududiy dasturlar doirasida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilangan, Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, agroturizmni rivojlantirishning hududiy dasturini amalga oshirish 3 darajasi keltirib o'tilgan, xorijiy tajribani o'rganish asosida, O'zbekiston sharoitida hududlarda agroturizm faoliyatini tashkil etishning yo'nalishlarini belgilash tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, agroturizm, boshqaruv, investitsiya, davlat dasturi, infratuzilma, agroturizm qishloqlari, agroturizm parklari, hududiy dasturlar, boshqaruv mexanizmi.

Аннотация. В статье научно обоснована необходимость принятия государственных и территориальных программ развития агротуризма, определены задачи, которые необходимо решать в рамках территориальных программ по привлечению инвестиций в агротуризм, исходя из поставленных целей и задач, приведены 3 уровня реализации Территориальной программы развития агротуризма, на основе изучения зарубежного опыта определены направления организации агротуристической деятельности в регионах в условиях Узбекистана. рекомендуется разметка.

Ключевые слова: туризм, агротуризм, менеджмент, инвестиции, государственная программа, инфраструктура, агротуризм деревни, агротуризм парки, территориальные программы, механизм управления.

Annotation. The article provides scientific evidence of the need to adopt state and territorial programs in the development of agrotourism, sets out tasks that should be solved within the framework of territorial programs for attracting investment in agrotourism, 3 levels of implementation of the territorial program for the development of agrotourism, based on the study of foreign experience, it is recommended to determine the directions

Key words: Tourism, agrotourism, Management, Investment, state program, infrastructure, agrotourism villages, agrotourism parks, territorial programs, management mechanism.

Kirish. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini samarali boshqarish mexanizmlarini tanlash, agroturizmga innovatsion faoliyatni faollashtirishini ta'minlaydi. Mamlakatlar agroturizmni qo'llab-quvvatlashning makroiqtisodiy va mezoiktisodiy dasturlari bilan qishloq aholisi va fermerlariga qishloq xo'jaligiga oid an'anaviy bilimlarni yo'qotmasdan, o'z kapitalini tejashga, investitsiya shaklida turizmga yo'naltirishga hamda uni ko'paytirishga, doimiy yashash joyini va odatdagi turmush tarzini saqlab qolishga yordam berdi. Yevropa fermerlari hamda qishloq aholisi uchun davlat tomonidan tashkil etilgan imtiyozli kreditlash (yoki subsidiyalash) tizimining yaratilganligi, agroturistik obyektlar egalariga turar-joy binolarini qayta jihozlash uchun imtiyozli soliq solish tizimining ishlab chiqilganligi, asosiy faoliyatdan tashqari to'g'ridan-to'g'ri daromad olish imkoniyatining yaratilganligi sababli agroturizmga investitsiya kiritish jozibador bo'lib bordi.

O'zbekistonda agroturizm rivojida mavjud bo'lgan muammolarni samarali hal qilish uchun agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni qabul qilish zarur. Agroturizmni rivojlantirish hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi dasturlar deganda mahalliy aholi va umuman mamlakat uchun ijobiy ijtimoiy-madaniy ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiyotni yuqori samarali, arzon narxlardagi, raqobatbardosh soha sifatida agroturizmni rivojlan-



tirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Agroturizmni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari, uning iqtisodiyotga ta'sirini xorijlik iqtisodchi olimlardan Efstratios Loizou, Christos Karelakis, Konstantinos Galanopoulos, Konstadinos Mattas, Kaswanto, Manuela Pulina, Domenica Giovanna Dettori, Antonello Paba, Richard Sharpley, qishloq xo'jaligida turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi makro omillarni Vytautas Barkauskas, Kristina Barkauskienė, Edmundas Jasinskis, Anna Farmakilar o'zlarining tadqiqotlarida bayon etishgan.

Agroturizmga investitsiyalarni jalb etish va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda MDH davlatlaridagi iqtisodiyot sohasidagi olimlardan F.Kazemiyeh, H.Sadighi, M.Chizari, L.Evgrafova, O.Akimova, S.Volkov, L.Dubinicheva, P.Sovetov, S.Laypanovlarning ilmiy tadqiqotlari ham e'tiborga loyiqdir.

Agroturizmning dunyo iqtisodiyotidagi ahamiyati, uni tashkil etish nazariy-huquqiy asoslari, moliyalashtirish manbalari va usullari, investitsiyalarni olib kirish yo'nalishlari, sohadagi mavjud muammolar masalalari O'zbekistonlik iqtisodiyot sohasidagi olimlardan B.Navruz-Zoda, F.Mirzaxodjayev, R.Amriddinova, S.Islomov, A.Fozilov, B.Raxmatov, N.Yuldasheva, M.Jo'raboyev, A.Amirov va boshqalarning tadqiqot ishlarida keng yoritilgan.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga, shuningdek, Jahon banki, BMTning Xalqaro turizm tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), "Business Wire" axborot agentligi kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Maqolada guruhlash, taqqoslash, mantiqiylik, iqtisodiy, va tizimli tahlil, natijalarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Agroturizmni rivojlantirishning davlat va hududiy dasturlari bozorning turli subyektlari - xususiy sektor, davlat, mahalliy davlat hokimiyati va vakolatli organlar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni o'z ichiga olishi lozim, chunki O'zbekiston sharoitida agroturizmga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning aynan shu shakli eng samarali hisoblanadi. Qabul qilingan dastur doirasida xususiy biznes va davlatning o'zaro ta'siri uzoq muddatli istiqbolda rejalarni shakllantirishni ta'minlaydi, iste'molchilarning talablariga javob beradigan agroturizm xizmatlarni rivojlantiradi, qishloqlarda ish o'rinlari yaratish orqali agroturizmga ixtisoslashgan hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Dasturning maqsadi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va turizmning maqbul kombinatsiyasi asosida tashkil etiluvchi agroturizmni rivojlantirish, uning bugungi kunda sezilarli darajada kam baholangan salohiyatini ochib berish, sohaga investitsiyalarni faol jalb qilishni rag'batlantirishdan iborat. Fikrimizcha ushbu maqsadga erishish uchun bir qancha vazifalarni hal etish lozim bo'ladi (1-rasm):

Hududlarda agroturizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishning eng muhim sharti qishloq aholisini ushbu faoliyat turiga faol jalb etish, agroturizmining foydali va nufuzli faoliyat turi sifatidagi ahamiyatini yoritib berish, ularning taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori sifati uchun sohani aniq tushunishi va mehmonlarni qabul qilishga tayyorligi va intilishidir. Ushbu shartning bajarilishi o'z-o'zini tashkil etishda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, o'z ishiga hurmat va an'anaviy o'zbek qishlog'ining insonparvarlik salohiyatini namoyon etish kabi ijtimoiy-psixologik omillarga ham asoslanadi. Shuningdek, hududiy dasturning muvaffaqiyatli amalga oshishi qishloq joylarining resurs imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun sharoitlar yaratishni ham o'z ichiga oladi (8-ilova).

Mamlakatimiz hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini, mahalliy sharoitlarning xilma-xilligini, hududlarning agroturizm bo'yicha investitsion jozibadorligini hisobga olgan holda,



hududiy dasturlarni qabul qilishda agroturizmni tashkil etishning turli yo'nalishlarini ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Xorijiy tajribani o'rganish asosida, O'zbekiston sharoitida hududlarda agroturizm faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo'nalishlarini belgilash tavsiya etiladi:

a) hududlardagi tarixiy va an'analar saqlanib qolgan qishloq joylarida mavjud ijtimoiy-madaniy muhitga qisman o'zgartirishlar kiritish orqali kichik oilaviy mehmonxona uylari va hududning mavjud agroturistik resurslari asosida agroturizmni tashkil etish.

Ushbu yo'nalishda agroturizm faoliyatini tashkil etish qishloq aholisini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasidan parallel ravishda xizmat ko'rsatish sohasiga o'tkazish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishni, belgilangan qishloq hududlarini qo'llab - quvvatlashga qaratilgan strategiyani milliy darajada qabul qilishni nazarda tutadi. Ushbu strategiya mavjud qishloq uy-joylari va qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchilar (dehqon va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan xo'jaliklar va boshqalar) asosida turar joylar tarmog'ini (xususi mini-mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, namunaviy qishloq uylari) va sayyohlar uchun ixtisoslashtirilgan ko'ngilochar muassasalarni (sport markazlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, otxonalar va boshqalar) rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

b) qishloq joylarida yirik va o'rta xususiy agroturizm obyektlarini barpo etish.

"Tarixiy yoki milliy qishloqlar" ko'rinishidagi ixtisoslashgan xususiy mehmonxonalar, tarixiy qishloq zodagoni, savdogari, dehqon uylari, madaniy-etnografik markazlar, hududga xos bo'lgan meva-sabzavotlar yetishtiriladigan bog'lar barpo etish, milliy taomlar tayyorlash, qishloq xo'jaligi ishlarida birgalikda ishtirok etish imkoniyatini yaratib berish va boshqalar. Agroturizm faoliyatini tashkil etishning ushbu yo'nalishidan foydalanish qishloq joylarda uy-joy fondining qulayligi va xizmat sifati past bo'lgan, ammo yaxshi sayyohlik salohiyatiga ega bo'lgan hududlar uchun xosdir. Ushbu yo'nalish maxsus loyihalarni ishlab chiqishni, katta investitsiyalarni jalb qilishni va keng qamrovli ilmiy tadqiqot va marketing ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni talab qiladi.

c) agroturizm parklarini barpo etish.

Agroturizmni rivojlantirishdan tashqari, ushbu yo'nalish ma'lum bir mamlakat yoki hududning qishloq xo'jaligi yutuqlarini ommalashtirish va targ'ib qilish, tarixiy ko'nikmalarni saqlash va milliy (an'anaviy) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnikasi va usullarini, milliy taomlarni tatib ko'rish va tayyorlashni namoyish etishga qaratilgan bo'ladi. Agroturizm parklari ko'p funksiyali markazlar bo'lib, sayyohlar uchun ko'ngilochar obyektlar, doimiy ko'rgazma va ekspozitsiya markazlarini barpo etish bilan birgalikda bir vaqtning o'zida ilmiy-tadqiqot va naslchilik ishlari olib borilishi mumkin. Ushbu yo'nalish ham yirik davlat yoki xususiy investitsiyalarni amalga oshirishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni 3 bosqichda amalga oshirish taklif etiladi.

1-bosqich. Agroturizmni rivojlantirish bazasini shakllantirish (2023-2025-yillar).

Ushbu bosqich qonunchilikni optimallashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini yaratish va ularning zaxirasini shakllantirish, agroturizmni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish, agroturizm infratuzilmasini rivojlantirish, mavjud agroturizm obyektlarining muvaffaqiyatli tajribasini targ'ib qilish va yangi loyihalarni boshlash muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, agroturizmga doir loyihalarni hududlar kesimida amalga oshirish mexanizmlarini yaratish, investorlar bazasini shakllantirish, ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda jahon tajribasini o'rgangan holda hududlarning xususiyatidan kelib chiqib qayd etilgan agroturizmni tashkil etish yo'nalishlari va turli boshqaruv modellarini qo'llash asosida loyihalarni amalga oshirishga erishish. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishda hududlarning investitsion jozibadorligini baholash tizimi asosida "istiqbolli" tumanlarda dastlabki agroturizm komplekslarini barpo etish.

2-bosqich. Agroturizm bozorining o'sishiga erishish (2026-2027-yillar).



Oldingi bosqichda ishlab chiqilgan mexanizm va tajriba asosida kumulyativ samarani yaratish va hududlarga o'z yo'nalishiga ega bo'lgan agroturizm obyektlari sonining, ularga tashriflar sonining tez o'sishini ta'minlash va shunga mos ravishda hududlarda agroturizmni rivojlantirishdan bevosita moliyaviy samaraga erishish. Fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash. Qishloq aholisida qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratish. Mavjud tajriba asosida agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishda hududlarning investitsion jozibadorligini baholash tizimi asosida "barqaror" va "o'suvchi" tumanlarda ham agroturizm komplekslarini barpo etish choralari ko'rish.

3-bosqich. Rivojlangan va raqobatbardosh agroturizm bozorini yaratish (2028-2030-yillar).

Fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, qishloq aholisining hayot va iste'mol sifatini oshirish, agroturizm tufayli mamlakat fermerlarining mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasini, o'z yo'nalishiga ega bo'lgan qishloqlarning an'analari va madaniy hayotini saqlab qolish hamda jahon bozorida tan olinishiga erishish. Mavjud tajriba barcha tumanlarda agroturizm komplekslarini barpo etish choralari ko'rish. Ushbu bosqichda agroturizm bozorining rivojlangan va raqobatbardosh bosqichiga o'tishi tufayli agroturizm obyektlari soni biroz kamayishi mumkin, ammo shu bilan birga mavjud obyektlarning rentabelligi, ulardagi tunab qolishlar soni va umumiy daromad o'sishda davom etadi. O'z brendiga ega bo'lgan agroturizm obyektlari yuzaga chiqadi. Agroturizm aholining sayohat qilishida mashhur yo'nalishga aylanadi. To'plangan tajriba agroturizmga investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solishning mavjud mexanizmlariga qo'shimcha ta'sirchan o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda agroturizmni rivojlantirishning uzoq muddatli ta'siri namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 sonli farmonida turizm xizmatlari eksportini 2030-yilga borib 5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi belgilangan. Agroturizmni rivojlantirishni boshqarishga imkon beruvchi hamda sohaga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantiruvchi davlat va hududiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida 2030-yilga kelib umumiy turizm eksporti hajmida agroturizm ulushini 5 foizga yoki 250,0 mln. AQSH dollariga yetkazish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Efstratios Loizou, Christos Karelakis, Konstantinos Galanopoulos, Konstadinos Mattas, The role of agriculture as a development tool for a regional economy, Agricultural Systems, Volume 173, 2019, Pages 482-490.
2. Kaswanto "Land Suitability for Agrotourism Through Agriculture, Tourism, Beautification and Amenity (ATBA) Method" Procedia Environmental Sciences, Volume 24, 2015, Pages 35-38.
3. Manuela Pulina, Domenica Giovanna Dettori, Antonello Paba "Life cycle of agrotouristic firms in Sardinia" Tourism Management, Volume 27, Issue 5, 2006, Pages 1006-1016.
4. Richard Sharpley, Rural tourism and the challenge of tourism diversification: the case of Cyprus, Tourism Management, Volume 23, Issue 3, 2002, Pages 233-244.
5. Vytautas Barkauskas, Kristina Barkauskienė, Edmundas Jasinskas, Analysis of Macro Environmental Factors Influencing the Development of Rural Tourism: Lithuanian Case, Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 213, 2015, Pages 167-172.
6. Anna Farmaki, An exploration of tourist motivation in rural settings: The case of Troodos, Cyprus, Tourism Management Perspectives, Volumes 2–3, 2012, Pages 72-78.



Salixov Saidamir Alisher o'g'li

TOBB ETU Tashkent Universiteti fakultet rahbari,
Iqtisodiyot fanlar bo'yicha falsafa doktori PhD

MAMLAKAT OZIQ - OVQAT EKSPORTI HAJMINI OSHIRISHDA KORPORATIV LOGISTIKANI QO'LLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakat oziq - ovqat eksporti hajmini oshirishda korporativ logistikani qo'llash tamoyillari haqida so'z boradi. Shuningdek milliy iqtisodiyotimiz uchun samarador korporativ logistika tizimini tashkil chora tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: meva sabzavot mahsulotlarining tashqi savdosi, maxsulotlarning ulgurji savdosi, eksport faoliyatida korporativ logistika tamoyillari, xalqaro logistika indeksi.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о принципах применения корпоративной логистики в увеличении объемов экспорта продовольствия в страну. Также были освещены меры по организации эффективной корпоративной логистической системы для нашей национальной экономики.

Ключевые слова: внешняя торговля плодоовощной продукцией, Оптовая торговля продукцией, принципы корпоративной логистики в экспортной деятельности, международный индекс логистики.

Annotation. This article will talk about the principles of applying corporate logistics in increasing the volume of food exports of the country. Also highlighted are measures to establish an effective corporate logistics system for our national economy.

Key words: foreign trade of fruit vegetable products, wholesale of products, principles of corporate logistics in export activities, international logistics index.

Kirish. Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda ham muhim.

Hozirgi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan logistika tizimi juda muhim rol o'ynamoqda. Samarador korporativ logistika tizimi esa ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini jadallashtirish orqali mahsulot va xizmatlarning mijozlar uchun qulay sharoit xamda arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rivojlantiradi. Eksport bozorida esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlaydi va jahon iqtisodiyotiga transformatsiya jarayonini tezlashtiradi. Milliy iqtisodiyotimiz uchun samarador korporativ logistika tizimini tashkil qilish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jahon Banki tomonidan chop etiladigan logistika samaradorligi hisobotida O'zbekiston 2022 -yilda "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'onaga ko'tarildi. Hisobotni ishlab chiqishda bojxona samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashuvlarni tashkil qilish osonligi, soha mutaxassislarining bilim va salohiyati, yuklarni kuzatish imkoniyati va yuklarni o'z vaqtida yetkazish darajasi kabi me'zonlar hisobga olinadi.

Afsuski mintaqamiz "Logistika samaradorligi" indeksi ko'rsatkichi maqtanarli darajada emas, ya'ni ushbu ko'rsatkich 2,6 ballni (1=past 5=yuqori sifatli) foizni tashkil qiladi. Bugungi kunda, korporativ logistika tizimi samaradorligini oshirish transport-geografik noqulay joylashgan va eng arzon transport turi bo'lgan dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri, hatto chegaradosh davlatlar orqali ham chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan bizning mamlakatda ayniqsa dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro logistika samaradorligi indeksi mamlakat tashqarisida ishlaydigan logistika sohasidagi ekspertlarning savdo hamkorlari fikri asosida mamlakatning olti tarkibiy qismiga sifatli



baho beradi. Xalqaro logistika samaradorligi indeksi – bu logistika sektorining ish samaradorligining umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagi oltita asosiy samaradorlik komponentini yagona kompleks ko'rsatkichga birlashtiradi.

Samarador korporativ logistika tizimini mikro va makro darajada o'rganishimiz mumkin. Xususan, mikro darajada o'rganganimizda, masalan, qaysidir viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanish asnosida xaridorlar shaharlardagi bozorlar, supermarketlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari bo'lishi mumkin. Tayyor mahsulotni oxirgi xaridorga yetib borguniga qadar qisqa muddat (bir necha kun) vaqtingiz bo'ladi. Shu vaqt ichida hosilni yig'ib olish, qadoqlash, transport vositasiga yuklab, xaridorga yetkazish lozim. Zanjirning biror-bir nuqtasida muammo paydo bo'lishi foydaning kamayishiga va hatto tadbirkorning zararga kirishga sabab bo'lishi mumkin. Bunga mahsulotni vaqtida yig'ib olmaslik, noto'g'ri qadoqlash, noto'g'ri saqlash, transport vositasining vaqtida mavjud emasligi/nosozligi yoki kerakli jihozlarni yo'qotish va shunga o'xshash ko'plab muammolar sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, xuddi shu holatni makro darajada tahlil qilsak, eksportga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirildi va mahsulot Yevropa bozoriga, masalan, Rossiyaga olib chiqilmoqda. Bunda avvalambor Rossiyada shu mahsulotga bo'lgan talab darajasini, taklif qilina-yotgan narxlarni, mahsulotingizning tannarxini, uning eksport va transport xarajatlarini hisoblanadi. Aynan shu mahsulotni Rossiyaga yetkazib beradigan Ispaniya, Italiya, Polsha kabi Yevropa davlatlari yetkazib beruvchilari raqobatbardosh hisoblanadi. Ishchi kuchi arzonligi, mahsulot sifati, uning xilma-xilligi korxonaning mahsulotini afzalliklari bo'la olsa-da, transport xarajatlari yuqoriligi mahsulotning oxirgi narxlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashishda qo'llanadigan muzlatgich-avtotransportida bir kilogram mahsulotni O'zbekistondan Rossiyaga qilingan transport xarajati hozirgi paytda mahsulotimizning qimmat transport sababli raqobatbardoshligini qanchalik yo'qotishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi rivojlangan davlatlar oxirgi yillarda iqtisodiyotda proteksionizm siyosatini olib borayotgan bo'lsalar-da (masalan AQShning hozirgi hukumati), amalda dunyo iqtisodiyotida globallashtirish jarayoni sekinlashgani yo'q. Dunyo bozorida katta o'zgarishlar nafaqat O'zbekistonning, balki butun mintaqamizning ro'y berayotgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Dunyo hamjamiyatida mavqei o'sib borayotgan Xitoy, Hindiston kabi davlatlarning global iqtisodidagi o'rnini ham oshirmoqda. Mintaqamizning Osiyoni Yevropa bilan bog'lagan muhim transport koridorining markazida ekanligi biz uchun ham chorlov va ham imkoniyat bo'lib hisoblanadi. "Bir Makon - Bir Yo'l" kabi loyihalar hamkorlar bilan birgalikda infratuzilmamizni yaxshilashga, transport va korporativ logistikaga aloqador bir qancha sohalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar korporativ logistika va transport sohasida ham yaqin kunlarda ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki o'sib borayotgan iqtisodning yuki eng avvalo korporativ logistika tizimiga tushadi. Shunday ekan, mamlakatimizning eksport diversifikatsiyasini kengaytirish, import xarajatlarini kamaytirish, mahalliy bozordagi transport xarajatlarini minimallashtirish va oqibatda xalqimiz farovonligini yanada oshirish aynan korporativ logistika samaradorligiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, dunyoda globallashtirishning rivojlanishi bilan jahon bozorida ishlaydigan korporativ logistik kompaniyalar soni ortib bormoqda. Kompaniyalar xalqaro miqyosda ishlayotganda kengroq nuqtai nazarga ega bo'lishlari zarur. Xususan, ba'zi kompaniyalar keng geografik hududda joylashgan bo'lishsa-da, ularning asosiy faoliyati mahalliy yoki mintaqaviy manbalar, ishlab chiqarish, inventarizatsiya va tarqatishga asoslangan edi. Ammo hozirda xalqaro kompaniyalar haqiqatan ham global maqomda bo'lib, ular logistik kompaniyalarda global biznesni ifodalovchi tashkiliy tuzilma va strategiyaga egadir. Bugungi kunda, jahon bozorining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, meva-sabzavot mahsulotlari zaxiralari va axborotni markazlashtirish hamda global brending, manbalar va ishlab chiqarishni shuningdek, logistik faoliyatni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, korporativ logistik kompaniyalar mahalliy talablar va mintaqaviy bozorlarni ta'minlay oladilar. Bu shuni anglatadiki, korporativ logistik korporatsiya-



larning transmilliy ko'lamli mahalliy buyurtma qilingan mahsulotlar va xizmatlarni e'tiborsiz qoldirishni anglatmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qudbiyev, N. T., Qudbiyeva, G. A. Q., & Abduraximov, B. U. O. (2022). Logistika da raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishning dolzarbligi. *Scientific progress*, 3(1), 133-142.
2. Tohirovich, Q. N. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 1(2), 56-64.
3. O'G'Li, R. U. R., Tohirovich, Q. N., & o'g'li, Q. N. A. (2021). Bilvosita soliqlarning soliq tizimidagi tutgan o'rni va ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 719-723.
4. Shaxrinoz Avazxonovna Kurbonova (2021). Mahsulot tannarxi hisobiga olishda boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari. *Scientific progress*, 2 (8), 603-607.
5. Ugli, A. B. U., Tohirovich, Q. N., Khatamovna, R. S., & Nigoraxon, M. (2021). Current Assets and Their Role in Company Activity. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(7), 25-30.
6. Тошназаровна, Э. М., & Барноева, М. А. (2021, November). Метафора «Собака-Человек» В Произведениях Дж. Лондона «The Call Of The Wild» И «White Fang» И Их Переводах На Русский Язык. In "Online-conferences" platform (pp. 126-130).
7. Toshnazarovna, E. M. (2021). Using the feedback template in teaching speaking and writing. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(11), 20-28.
8. Elmanova, M. (2017). Philosophical analysis of rw emerson's" nature" and" self-reliance. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 9.
9. Mastura, E. (2017). Depiction of the naturalism presented in the call of the wild. *Интернаука*, (7-3), 6-9.

Internet manbaalari.

1. <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/29971/ LPI2018>.
2. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
3. http://www.agriculture.uz/filesarchive/Sbornik_2016_TSAU.pdf

Turdiyev Bexruz Sobirovich

Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
b.s.turdiyev@buxdu.uz

DEMOKRATIK JAMIYAT RIVOJI VA MA'NAVY YANGILANISHLARNING DIALEKTIK ALOQADORLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada demokratik jamiyat rivoji va ma'naviy yangilanishlar aloqadorligini o'rganishning nazariy-falsafiy jihatlarini, demokratik jamiyat rivojining ma'naviy yangilanishlarga ta'siri, uning o'zaro bog'liqligi tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada demokratik jamiyat rivoji ma'naviy yangilanishlarning, o'z navbatida, ma'naviy yangilanishlar esa, demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganilib, tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, millat, ma'naviy yangilanish, ma'naviy meros, islohot, axloq, qadriyat, demokratiya, ambivalentlik, mentalitet, dunyoqarash

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-философские аспекты исследования взаимосвязи развития демократического общества и духовного обновления, а также влияние развитие демократического общества на духовное обновление и их взаимозависимость. Кроме того, в статье развитие демократического общества рассматривается с социально-философской точки зрения, и приводятся соответствующие выводы о том, что духовное обновление является важным фактором развития демократического общества.

Ключевые слова: развитие, нация, духовное обновление, духовное наследие, реформа, мораль, ценности, демократия, амбивалентность, менталитет, мировоззрение.

Annotation: In this article, the theoretical and philosophical aspects of the study of the interrelationship between the development of a democratic society and spiritual renewal are analyzed, as well as the influence of the growth of a democratic society on spiritual renewal and their interdependence. Furthermore, the development of a democratic society is examined from a socio-philosophical perspective, and relevant conclusions are drawn regarding the fact that spiritual renewal is an important factor in the development of a democratic society.

Key words: development, nation, spiritual renewal, spiritual heritage, reform, morality, value, democracy, ambivalence, mentality, worldview.

Kirish. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar xalqimizning ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. Bunday demokratik islohotlar mustaqillik yillarida ijtimoiy-madaniy sohadagi islohotlar bilan bog'liq holda kechdi. Demokratik taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy yangilanishlar bilan mushtarakligi xalqimizning sharqona fazilatlarini, dunyoqarashi va hayot tarziga asoslangan holda amalga oshadi. Ma'naviy yangilanishlar va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi milliy taraqqiyotining o'ziga xos belgisi hisoblanib, ushbu belgilar aholining tafakkuri, siyosiy va huquqiy madaniyati, kuchli fuqarolik pozitsiyasi, saylovlarda demokratik jamiyat manfaatlarini o'zida aks etgan nomzodlarga ovoz berishi, davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy faol ishtirok etishida namoyon bo'lmoqda. Bu ko'rsatkichlar demokratik jamiyat rivojining ma'naviy yangilanishlar bilan uyg'unligi, ma'naviy hayotning yuksakligi va millat yetukligini o'zida aks ettiradi.

Tadqiqotning obyektini mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar va ma'naviy yangilanishlar jarayoni tashkil etadi. Tadqiqot ishida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar.

"Ma'naviyat asosiy tushunchalar" izohli lug'atida ma'naviy yangilanish – ma'naviyatning o'zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayoni deb tavsiflanadi. Shundan kelib chiqib, ma'naviy yangilanishlar jarayonini:



birinchidan, inson, uning hayotida, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning inson tafakkurida ma'lum ijobiy sifat o'zgarishlarga olib keladigan;

ikkinchidan, ma'naviy yangilanishlar voqelikdagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi va sodir bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan jarayon deyshimiz mumkin.

Ma'naviy yangilanishlar strategiyasi - milliy-ma'naviy tiklanish asoslarini yaratish, milliy taraqqiyot negizida ma'naviy meros, o'zlikni anglash va umuminsoniy demokratik prinsplarga mos milliy yuksalishga erishish shart-sharoitlari va omillari majmuidir.

Jamiyat o'z rivojlanish taraqqiyot yo'lida rivojlanib, yuksalib borayotgan ma'rifiy, madaniy, strategik maqsadlar bilan aloqador bo'lgan manfaatlar ma'naviy yangilanishning yangi yo'nalishlarini vujudga keltiradi. Muayyan bir islohotlar davridan yangi islohotlarga evolyutsion yo'l bilan o'tishda ma'naviy yangilanishlar jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi obyektini tashkil etadi.

F. Musayev ma'naviyatning milliy demokratik taraqqiyotdagi antologik mohiyatini quyidagi yo'nalishlarga ajratib ko'rsatadi:

birinchidan, milliy demokratik taraqqiyot va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning uyg'unligi;

ikkinchidan, sharqona axloq-odob bilan Sharqona demokratiyaning uyg'unligi;

uchinchidan, milliy demokratik taraqqiyotning ijtimoiy mehnatga, insonning ijodiy faoliyatiga, dunyoni, yon-atrofni o'zgartirishga yo'naltirilgan izlanishlariga bog'liqligi;

to'rtinchidan, bozor munosabatlarining iqtisodiy hayotga ta'siridan kelib chiqib yangi iqtisodiy qadriyatlar va iqtisodiy tafakkurning shakllantirilishi;

beshinchidan, ijtimoiy munosabatlarda umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning qaror topishi;

oltinchidan, transsendental qarashlar bilan dunyoviy bilimlarning mushtarak tomonlaridan foydalanish;

yettinchidan, insonning ijtimoiy-ma'naviy kamoloti - jamiyat taraqqiyotining maqsadi;

sakkizinchidan, shaxsdagi siyosiy-axloqiy faollikka milliy demokratiya taraqqiyotining mezon sifatida qarash [1].

Fikrimizcha, F. Musayevni fikrlarini quvvatlab, faqatgina uchinchi qismini, ya'ni milliy demokratik taraqqiyotning ijtimoiy mehnatga, insonning ijodiy faoliyatiga, olamni tabiat borlig'ining qonunlari asosida o'zgartirishga yo'naltirilgan izlanishlariga bog'liq, – deb o'zgartirishni lozim deb hisoblaymiz. Zero, dunyo miqyosida ma'naviyatning milliy demokratik taraqqiyotida tabiat borlig'i qonunlarining ustuvorligi immanent komponent sifatida kiradi deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy falsafa qonuniyatlari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy yangilanish jarayoni oson kechadigan jarayon emas. Chunki eski tuzumning sarqitlari ma'naviyatda muayyan davrgacha saqlanib qoladi va kishilarning xulq-atvori, turmushiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Bunday holat fanda ma'naviyat ambivalentligi, deb ataladi. Bu tushuncha ma'naviyat tarkibida bir paytning o'zida bir-biriga mos kelmaydigan, o'zaro zid tushuncha va tasavvurlarning ma'lum bir vaqt mobaynida yonma-yon mavjud bo'lishini anglatadi. Ma'naviyat osoyishta taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan pallada ma'naviy ambivalentlik deyarli bo'lmaydi yoki juda past darajada bo'ladi. Taraqqiyotdagi burilish pallalarida ambivalentlik ko'proq namoyon bo'ladi. Bu holat avvalambor, insonning ma'naviyati va xulq-atvorida islohotlarga daxldorlik va hozirjavoblik ruhida tarbiyalash asosida bartaraf etilishi mumkin.

Jahon xalqlarining tarixi yuksalishi hamisha ularning ma'naviy, mafkuraviy birlashuvi asosida yuz bergan. Ma'naviy yangilanishlar xalqning o'tmishi, madaniy-ma'naviy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini ob'ektiv baholay olish, uni anglash hamda ulardan oqilona foydalanish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tarixiy-falsafiy jarayondir. Bu jarayonda xalq o'z tarixi, milliy madaniyati, qadriyatlari, ma'naviy merosidan bexabar qolsa, o'tmish haqidagi aniq tasavvuri ham, kelajakka qaratilgan strategik maqsadi ham, bu yo'lda birlashish yo'li bilan ezgu maqsadga safarbar etish xohishi ham bo'lmaydi. Ma'naviy tanazzulga tushib qolgan xalq undan chiqmas ekan, tez orada boshqa xalqlarning madaniyati ta'siriga tushishi, o'z milliyligini, o'zligini yo'qotishi, qadr-qimmatini unutishi mumkin. Bunday holatda xalqlar milliy mentaliteti, ma'naviyati zaif bo'lgan etnik guruh sifatida tarix sahifasida o'z o'rnini egallay olmay, yo'qolib borishi mumkin.



Taraqqiyotga erishish uchun ikki narsa – mablag‘ va uni oqilona sarflay oladigan aql kerak. Agar shu aqlni keng ma’noda “ma’naviyat” deb atasak, milliy yuksalishimiz darajasi bevosita ham, bilvosita ham milliy ma’naviyatimizga bog‘liqligi ayonlashadi [2].

Ma’naviy yangilanishlar jarayonida biror bir jamiyat yo‘qki, u insonlar qalbi va ongida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy an‘ana, diniy va falsafiy yutuqlarni mustahkamlamay turib, ma’naviy taraqqiyot sari yuksalib borsin. Zero, xalqning ma’naviy merosi, madaniy yutuqlari va diniy qadriyatlari ming yillar davomida Sharq falsafasi va ma’naviyatining fundamental asosi sifatida xizmat qilgan. Xalqimiz chorizm va mustamlakachilik davrida asoratga tushishiga qaramasdan, o‘zining tarixiy-falsafiy, ma’naviy-madaniy merosi va milliy-diniy qadriyatlarini saqlab qoldi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, mamlakatimizda xalq suvereniteti va inson huquqlarining ustuvorligi e‘tirof etildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev e‘tirof etganidek: “Biz bugun xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, istiqloq yillarida bosib o‘tgan og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g‘oyat sharaflı yo‘limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda o‘z taqdirimizni o‘zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, milliy davlatchiligimizni, azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo‘lga kiritganimizni faxr bilan tilga olamiz” [3].

Darhaqiqat, bir necha yillar davomida soxtalashtirilgan tariximiz tiklanib, madaniy-ma’naviy merosimizni tiklash o‘z qo‘limizga o‘tdi. Xalqimiz, o‘z navbatida, shunday murakkab tarixiy-falsafiy jarayonda ma’naviy va diniy qadriyatlarimizni tiklash, ularni boyitib borish yo‘lini tanladi. Deyarli 130 yil davom etgan mustabid tuzumdan so‘ng bu tarixiy-falsafiy jarayon o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili asosida yuz berdi. Biroq biz bu eski mustabid tuzumdan qolgan tarixiy xotirani to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad eta olmas edik. A.No‘monova ta’kidlaganidek, biz buning ortida qanday katta siyosiy bo‘hronlar doirasiga tushib qolishimiz ehtimoli mavjudligini oldindan anglab yetgan edik. Shu bilan bir qatorda, o‘tmish qadriyatlari va urf-odatlarini tiklashga yopishib olish konservatizmga, ya’ni hozirgi rivojlangan demokratik davlatlar umume’tirof etgan prinsiplariga to‘liq mos tushmas va jamiyatning ma’naviy yangilanishiga g‘ov bo‘lishi mumkin edi. Shuning uchun ham bugungi kunda hayotini to‘g‘ri maqsadlarga yo‘naltira oladigan, bilimli, tarbiyali, insoniyat ma’naviy-madaniy taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shadigan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan yoshlarni kamol toptirishga jiddiy e‘tibor qaratildi [4].

Xalqimiz milliy mentalitetini tiklash va haqqoniy tariximizni yaratish, o‘zbek xalqining o‘zligini anglashi, ular qalbida ona Vatan va ajdodlar ma’naviy-falsafiy merosidan faxr-iftixor tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbek xalqining shonli o‘tmishi millatimizning haqqoniy tarbiya va ibrat maktabiga aylanib, xalqimiz tarixiy xotira va ongining rivojlanishiga xizmat qildi. Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan allomalarning bebaho intellektual merosi ma’naviy yangilanishlar, falsafiy dunyoqarash bilan tarixiy taraqqiyotimiz yo‘lini belgilab olishda po‘ydevor bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik davrida ma’naviy hayot ham yangi bosqichga ko‘tarildi, nodir iste’dod sohiblari tarbiyalandi. Ularning yuksak badiiy, teran falsafiy asarlari xalqimiz ko‘nglidan chuqur joy oldi, intellektual mulk rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi [5].

Yurtimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Hakim Termiziy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abu Mansur Moturidiy, Abul-Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abdulholiq G‘ijduvoni, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir kabilar Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviyati, jahon ilm-fani, madaniyati, tarixiy taraqqiyoti rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Vorisiylik qonuniyati asosida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy merosning keyingi avlodga o‘tishi, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga, demokratik jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yangilanishlarga xizmat qilishi lozim. Zero, ko‘hna



madaniyat va sivilizasiyalar chorrahasida joylashgan mamlakatimiz hududidan ko'plab olimu fuqalolar, buyuk mutafakkir va allomalar, aziz-avliyolar yashab, ijod etishgan. Ularning keyingi avlod uchun qoldirgan aniq fanlar va diniy ilmlar sohasidagi ulkan merosi, umuminsoniyat sivilizatsiyasining bebaho ma'naviy qadriyati hisoblanadi. Shuning uchun qadimdan ko'hna Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlari nafaqat ilm-ma'rifat ahli markazi sifatida, balki Sharq xalqlari falsafasi, ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlarni mujaasam etgan muqaddas qadamjolar sifatida ulug'langan.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizdagi tarixchi va faylasuf olimlarning sa'y-harakatlari bilan haqqoniy tariximizning ochilmagan qirralari, jumladan, Sharq renessansi davri, temuriylar davri va XIX-XX asrning oxiri tarixining ochilishiga muhim qadamlar qo'yildi. Natijada, milliy davlatchiligimiz tarixi yaratilib, bugungi asosiy maqsad etib, demokratik jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yangilanishlar jarayonini ilmiy-falsafiy jihatdan teran o'rganish, u haqda xolisona fikr bildirish borasida katta imkoniyatlar yaratilishi belgilandi, mamlakatimiz hududidagi osori-atiqalarni asrash, milliy qadriyatlarni tiklash, qadimiy boy tariximizni to'laqonli yoritish imkoniyati yuzaga keldi.

Yurtimizdan etishib chiqqan buyuk allomalarning jahon xalqlari ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini munosib baholash maqsadida ularning tavallud kunlari nishonlandi. YUNESKOning Finlyandiyada o'tkazilgan 25-sessiyasida Samarqandning tarixiy markazidagi me'moriy-tarixiy yodgorliklar YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. 2002 yil mart oyida - YUNESKO Bosh direktorining qaroriga ko'ra "Shaharlar – tinchlik uchun" tanlovida yutgan 10 ta shahar orasidan Buxoro shahri ham joy oldi.

Bugun yurtimizdan chiqqan buyuk allomalarining hayot yo'li va ilmiy merosini chuqur o'rganish, ularning bebaho asarlarini o'zbek tilida tarjima qilib, nashrdan chiqarish davlatimizning ma'naviy-ma'rifiy sohasidagi dolzarb vazifalardandir. Binobarin, ilm-fan, madaniyat, san'at sohasining qaysi bir jabhasini olib qaramasak, ularning barchasi rivoji yo'lida ajdodlarimizning xizmatlari beqiyos.

Shuni alohida qayd etish joizki, xalqlar tarixining ajralmas qismi, turmush tarzining in'ikosi sifatida yuzaga kelgan milliy qadriyat, urf-odat, an'ana va marosimlarga ta'sir ko'rsatuvchi bir necha omillar bilan bog'liq holda vujudga kelib, shakllanib boradi. Markaziy Osiyo ming yillar davomida turli din, millat va elat vakillari makoniga aylanib, ulardagi madaniyat va turmush tarzi qorishib ketgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, millatlararo va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash, hamjihatlik tuyg'usini shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashga jamiyat hayotida strategik vazifa sifatida e'tibor qaratildi. Xususan, mamlakatimizda tolerantlik va bag'rikenglik qadriyatini shakllantirish, millatlararo hamjihatlikni qaror toptirish, yosh avlodni tug'ilgan makonga nisbatan hurmat va sadoqat ruhida kamol toptirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Yangi O'zbekistondagi do'stlik va hamjihatlik muhiti – yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, strategik islohotlar samaradorligini oshirish hamda uning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu islohotlarning samarasi bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlarda ham to'liq o'z ifodasini topmoqda.

Xalqimiz ma'naviy yangilanishining yana bir fundamental asosini sof oilaviy va qarindoshlik munosabatlari tashkil etadi. Keksalarga hurmat, o'zaro ishonch, halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik, qo'ni-qo'shni, mahalla, jamoatchilik fikrining ustuvorligi, qon-qarindoshlik, aka-uka hamda opa-singillar o'rtasidagi mehr-oqibat, yosh avlodni ajdodlarimiz yaratgan sharqona axloq-odob qoidalari asosida tarbiyalash oilaviy munosabatlarning asosiy qoidalari sanalgan. Mustaqillik sharofati bilan oilaviy qadriyatlarni tiklash, jumladan, oilaviy hunarmandchilik an'analarni davom ettirish, faqatgina oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilmay, balki oilaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va felisitologik jihatlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Darhaqiqat oila, halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar shakllanadigan maskandir.

O'zbekistonda ma'naviy yangilanishlar strategiyasining tadbiq etilishida umume'tirof etilgan qadriyatlar, inson huquq-erkinliklarining ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatning



taqsimlanishi, ko'ppartiyaviylik, kuchli fuqarolik jamiyati asoslari, ommaviy axborot vositalarining erkinligi, vijdon, so'z va e'tiqod erkinligi singari prinsiplarning ustuvorligi tan olindi. Bu qadriyatlar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish va ma'naviy yangilanishlarning tarixiy-falsafiy va milliy-diniy jihatdan xalqimizning mentalitetiga mos ekanligini kuzatish mumkin.

Demak, ma'naviy yangilanish insonlar tafakkur tarzini belgilaydigan yangi avlodga mansub intellektual yuksak fazilatli avlodning paydo bo'lishidir. Fikrimizcha, qotib qolgan eskicha dunyoqarash tarzidan voz kechish – bu tarixiy xotiramizdan voz kechishni anglatmay, balki dogmatik va tor tafakkur shaklidan voz kechishni nazarda tutadi. Milliy dunyoqarash va tafakkur rivojlanishida ma'naviy yangilanish masalalariga jahon miqyosida yondashish, unda boshqa xalqlarining madaniyati bilan yaqindan tanishish va milliy manfaatlar inobatga olinishi lozim.

Mamlakatimiz demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, bunday jamiyatning ustuvor voqeliklaridan biri bo'lgan ijtimoiy raqobotga alohida e'tibor qaratdi. Ijtimoiy raqobotni ta'minlashda avvalo, xalqimizning ma'naviy yangilanish asoslari milliy qadriyatlarimizning uyg'unligi asosida amalga oshirildi. Bunga, faqatgina ma'naviy, madaniy va innovasion jihatdan yondashib, moddiy hayot bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-falsafiy mexanizmlarning mustahkamligida erishish mumkin edi. Bu mexanizmlar kuchli demokratik fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimizning milliy-ma'naviy negizlarining tiklanishi orqali bugungi davr sivilizatsiyasi taqozo etayotgan yashash normalarining yig'indisidan iborat edi. BMT hujjatlarida, demokratiya "umumbashariy qadriyat" hisoblanib, u oxir-oqibat xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyotga, inson huquqlarini hurmat qilish vositasi" bo'lganligi e'tirof etiladi [6].

Ma'naviy yangilanishlar jarayonida fuqarolik jamiyati har bir shaxsga mustaqil fikrlash, so'z, e'tiqod va ijod erkinligi huquqini ta'minlashga keng imkon ochib berdi. Buning natijasida ma'naviy-madaniy sohadagi muassasalar, ijodkorlar uyushmalari, nodavlat ta'lim muassasalari, jismoniy tarbiya va sport klublari, federatsiyalari tashkil etildi [7]. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar o'z navbatida, ma'naviy yangilanishlar jarayonini vujudga keltirdi, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlari orqali rivojlanishiga imkon yaratadi va ularni kelgusi avlodni voyaga etkazishda xizmat qilyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat va jamiyatni modernizatsiyalash bo'yicha qo'yilgan vazifalar aholi ongida ustuvorlik qiluvchi qadriyatlar haqidagi tasavvurlar va qadriyat mezonlari tizimi yuzasidan real fikr yuritish va har tomonlama o'rganishni, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning qadriyat mo'ljallarini majmuaviy tadqiq etishni talab etmoqda. Bu mamlakatda nafaqat jamiyat taraqqiyotining ma'naviy munosabatlarini aniqlashga, balki uning O'zbekiston uchun an'anaviy bo'lgan qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy modernizatsiyasi yoki transformatsiyasi yo'nalishida borayotganligi yoki yo'qligiga aniqlik kiritishga ham imkon beradi [8].

Demokratik qadriyatlarni anglashda jamiyatimizdagi fuqarolarning ma'naviyati, ma'rifati, siyosiy ongi va madaniyati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisdagi Murojaatnomasida quyidagilarga alohida diqqat qaratdi: "Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" [9].

Darhaqiqat, to demokratik taraqqiyotga erishmaguncha, to chora-tadbirlarimiz va strategik islohotlarimiz manfaat doirasi bilan bog'lanmaguncha ma'naviy yuksalishlarning mazmuni ham, ko'lami ham yuksak darajaga erishmaydi. Bu fuqarolar ongi va tafakkurini tubdan o'zgartirish, mustabid tuzum davridan qolgan befarqlik kayfiyatini yo'qotish, shu asosda milliy strategik islohotlarimiz zamiridagi milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari bir maqsadda birlashish va ushbu jarayonlarda faol ishtirok etish bilan bog'liq. Faqatgina yuksak ma'naviyatli, intellektual boy bo'lgan jamiyatgina demokratik qadriyatlarni haqqoniy qadrlashi, aksincha, bilimsiz va jaholatli odamlar esa totalitar rejimni, konservatizm mafkurasini yoqlab, demokratik taraqqiyot yo'lidan borishga to'siq bo'lishlarini hayotning o'zi isbotlamoqda.



Shu maqsadda, hozirgi globallashuv jarayonida jamiyat a'zolarining barcha qatlamlariga milliy va jahon madaniyatining eng sara namunalarini uyg'unlashtirgan holda ularning bu qadriyatlaridan bahramand bo'lishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, ularni keyingi avlodga yetkazish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bu borada mamlakatimizdagi musiqa, teatr, kino, haykaltaroshlik, rassomchilik va ko'plab boshqa san'at sohalaridagi yangilanishlarni qo'llab-quvvatlash, mazkur milliy san'at turlarini jahonga tanishtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi yakunlari bo'yicha brifingida Markaziy Osiyo xalqlarining qondosh xalqlar bilan tinchlik va totuvlikda yashab kelayotganligini jahon xalqlari orasida kam uchraydigan hodisa sifatida ta'kidlab o'tdi. Darhaqiqat, mintaqa xalqlari orasida bunday rishtalarning mavjudligini ularning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, mushtarak tarixi va madaniyati, mentaliteti, yagona muqaddas dini hamda ajralmas do'stlik aloqalari bilan bog'lash mumkin [10].

Vatanimiz taraqqiyoti, eng avvalo, uning o'zligiga, uning ma'naviy salohiyatiga va milliy ongining yuksalishiga bog'liqdir. Binobarin, iqtisodiy farovonlikka talpinish xalqning ma'naviy va intellektual jihatdan yuksalishiga to'sqinlik qilmasligi lozim. Ma'naviy yetuklik va ma'rifiy yuksaklik o'zbek xalqining uzoq tarixi davrida uning o'ziga xos jihati bo'lib kelgan. Xalqimiz an'anaviy qadriyatlarini hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish, yaqin kelajakda O'zbekistonni yanada rivojlantirish davlatimizning dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashining kafilidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik tufayli O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lidan rivojlanishni tanladi. Buning uchun jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash zarur edi. Bunda sobiq sovet tuzumi bilan bog'liq jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi g'oyaviy-mafkuraviy maqsadlar va prinsiplardan voz kechilib, jamiyat rivojlanishida milliy g'oya negizlariga tayangan holda jamiyat yangicha g'oyaviy-mafkuraviy asosga tayandi. Natijada, demokratik jamiyat rivojlanishi ma'naviy yangilanishlar orqali amalga oshirildi. Millatning milliy-ma'naviy tiklanishi va milliy o'zligini anglashi uchun zarur bo'lgan islohotlar o'z vaqtida izchil rejalar asosida amalga oshirildi. O'zbekiston bu borada boy tajriba va yutuqlarga erishib, Uchinchi Renessans poydevoriga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Мусаев Ф. Демократик давлат куришнинг фалсафий–хукукий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 234.
2. Султонмурод Олим. Юксалиш юки. //Тафаккур. – Тошкент, 2019. – №3. –Б.15.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 222-223.
4. Нўмонова А. Ўзбекистоннинг замонавий маънавий–маданий тараққиётида аёллар масъулиятини ошириш. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2018. – №4. – Б. 38.
5. Бобоқулова Х. Фалсафий фанларнинг миллий тизими: мерос ва замонавийликнинг уйғунлиги // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2019. – №2 (58). – Б. 44-45.
6. Timothy Sisk. Democracy and Development: The Role of the United Nations. Discussion paper. – New York:International institute for democratic and electoral assistance, University of Denver, 2013. –P.16.
7. Ширинов Д. Фуқаролик жамияти институтлари тушунчаси ва тизимининг таркибий элементларига доир // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2018. – №2 (54). – Б. 6.



Shirinov Anvar Qanoatovich

Buxoro davlat universiteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası" dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
anvarsh@yahoo.com

INSON KAPITALI G'OYALARINING AMALGA OSHIRILISHI YANGI IJTIMOIY-SIYOSIY VOQELIK SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson taraqqiyoti g'oyalarining amalga oshirilishi yangi ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida tahlil etilgan. Inson taraqqiyotida inson kapitali, kliodinamika, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy siyosat, tenglik, salomatlik, inson kapitali, erkin ommaviy axborot vositalarining roli ko'rib chiqilgan. Barqaror rivojlanishning vazifasi qashshoqlikka barham berish, ishlab chiqarish va iste'mol qilishning beqaror modellarini o'zgartirish, tabiiy resurslar bazasidan ratsional foydalanish va uni muhofaza qilish hisoblanishi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, inson taraqqiyoti, kliodinamika, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy siyosat, tenglik, salomatlik, inson kapitali.

Аннотация. В данной статье анализируется реализация идей человеческого развития как новой социально-политической реальности. Рассмотрена роль человеческого капитала, клиодинамики, цифровых технологий, социальной политики, равенства, здравоохранения, человеческого капитала, свободных СМИ в развитии человеческого потенциала. Отмечается, что задачей устойчивого развития является ликвидация бедности, изменение нестабильных моделей производства и среды обитания, рациональное использование природно-ресурсной базы и ее сохранение.

Ключевые слова: устойчивое развитие, человеческое развитие, клиодинамика, цифровые технологии, социальная политика, справедливость, здоровье, человеческий капитал.

Annotation. this article analyzes the implementation of human development ideas as a new socio-political reality. The role of human capital, cliodynamics, digital technology, social policy, equality, health, human capital, free mass media has been considered in human development. It is noted that the task of sustainable development is to eliminate poverty, change unstable models of production and istemol, rational use of the natural resource base and its conservation is calculated.

Key words: sustainable development, human development, cliodynamics, digital technologies, social policy, justice, health, human capital.

Kirish. Jahonda jadal sur'atlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar inson taraqqiyoti konsepsiyasiga barqaror taraqqiyot, resurs-tejamkor texnologiyalarning tatbiq etilishini, adolatli ijtimoiy siyosat yurgizish strategiyalardan muvofiqini tanlashni va ijtimoiy davlatning asoslarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Inson taraqqiyoti strategiyalarining takomillashuvi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy aloqalar va mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirish, yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratish, ilm-fan, ta'lim sohalarini yangi bosqichga ko'tarishni talab etadi. Inson kapitalini rivojlantirishning xalqchil davlat qurish, resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar izchilligini ta'minlash va aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. Tadqiqotning obyekti sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish strategiyalari hamda inson kapitalini rivojlantirishga oid olib borayotgan islohotlar jarayoni tanlab olingan. Maqolada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Barqaror rivojlanishning vazifasi qashshoqlikka barham berish, ishlab chiqarish va istemol qilishning beqaror modellarini o'zgartirish, tabiiy resurslar bazasidan ratsional foydalanish va uni muhofaza qilish hisoblanadi.



Inson taraqqiyoti zamonaviy yondashuvlar xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Inson taraqqiyoti, kapitali, farovonlik masalasini barqaror rivojlanishdagi tendensiyalarni tahlil etish kontekstida M.Haq, S.Anand va A.Sen, S.Fukuda-Parr inson taraqqiyoti indekslarini, F.Starr mintaqadagi inson taraqqiyotini retrospektiv asoslarini, E.Olvors madaniy muassasalar holatini, P.Frankopan inson taraqqiyotining kliodinamikasini, B. Valsh, L.De Florio va M.Bernxem inson taraqqiyotida oila muammolarini, V. Brayen, A.Masgrov va J. Pauerslar inson taraqqiyotida raqamli texnologiyalar va "yashil iqtisodiyot"ni hamda J. Tilak inson kapitalining rivojlanishida ta'lim tizimini, S. Mexrotra inson kapitalidagi to'siqlarni, S. Peyruz taraqqiyot dilemmalarini, X. Seilo inson farovonligida tenglik, E. Stanton inson kapitali va tenglik rolini ko'rib chiqqanlar.

Muhokama va natijalar. Inson taraqqiyoti to'g'risidagi turli yondashuvlar, inson kapitali, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va uning inson taraqqiyoti bilan dialektik aloqadorligi, ijtimoiy himoya, Palma nisbati, inson erkinliklari va va aholining jamoat ishlarida qatnashishi, gender omillarini qamrab olgan rivojlanish indeksleri tadqiq etilgan. Inson taraqqiyoti bu oddiy kishilarning kim bo'lishlari, nima qilishlari va qanday yashay olishlarida haqiqiy erkinlikdir. Inson taraqqiyoti tushunchasining rivojlanishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Sharq Uyg'onish davrida Markaziy Osiyoning yetuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy [1], Abu Ali ibn Sino asarlarining asosiy markazida inson muammolari turgan. Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro davrida inson taraqqiyoti masalalari o'rganilgan. Navoiy vazir sifatida, Boyqaro amir bo'lib Xurosondagi aholining manfaatlari yo'lida xizmat qilishgan.

Buning vorisiylik tamoyilini Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020 yil 20 aprelda xalqimizning tarixiy qadriyatlari, mehr-saxovat va himmat kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati faoliyati yo'lga qo'yilganligi misolida ko'rishimiz mumkin. Ma'rifatparvarlar davrida inson, uning xavfsizligi muammolari falsafiy jihatdan tadqiq etilib, fransuz olimi J.J. Russo, xalqning baxt-saodati va farovonligi masalalarini o'rgangan. Nemis mutafakkiri I. Kant insonning taraqqiy etishini belgilab beruvchi muassasalar qatorida ta'lim, fan va madaniyat sohalarining ahamiyati borligini va unda doimo bunyodkor ibtido ustun ekanligini qayd etadi [3]. A. Sen, A. Marshal, M. Haq va J. Nayt inson omilining funksional ta'limoti izdoshlaridir. G. Bekker, T. Shultz, J. Forrester inson taraqqiyotida institsional-reformistik ta'limotning namoyandalari hisoblanishadi.

P.Frankopanning qayd etishicha, "inson taraqqiyoti konsepsiyasi strategiyalarining falsafiy asosida inson taraqqiyotning obyekt deb bilinadi. Bu tushuncha kishilarning o'z salohiyatlarini amalga oshirishlari uchun ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni o'z taraqqiyotlari yo'lida faol ishtirok etishlarining ta'minlanishini o'z ichiga oladi. Inson taraqqiyoti malaka, bilim va ijodkorlikni rivojlantirishni qamrab oladi".

Inson taraqqiyotining salohiyati konsepsiyasiga ko'ra davlat iste'mol, imkoniyatlar, ta'lim sohasidagi tenglikni ta'minlaydi va sog'liqni saqlash sohasidagi kerakli minimumni qanoatlantiradi. Sharqda insonning yashab turgan muhitidagi ijtimoiy mavqei, mahallaning inson taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi [5]. Hind olimi S. Mexrotraning fikricha, "inson taraqqiyoti bo'yicha hisobotlar inson taraqqiyotining bir necha indekslarini o'z ichiga oladi. Inson taraqqiyoti indeksi o'z ichiga uzoq umr ko'rish, bilim va daromadlarni (umr ko'rish uzoqligi, katta yoshdagi kishilarning savodxonligi, maktabga qatnagan yillari uzoqligi va xarid qilish qobiliyatidan kelib chiqib daromadlarini hisobga olgan holda hisoblanadi) nazarda tutadi" [6]. A. Senning fikricha, inson taraqqiyoti bu kishilarda mavjud bo'lgan erkinliklar doirasini kengaytirish jarayonidir. U 1989 yilda "insonning tanlash imkoniyatini kengaytirish" konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ushbu konsepsiyaning falsafiy mohiyati asosida, barqaror rivojlanish asosida ekologik omillarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga integratsiya qilish nazarda tutilgan. Barqaror rivojlanishning asosiy komponentlari inson taraqqiyotining gumanitar va ijtimoiy rivojlanishning parametri bo'lishi lozimligi ta'kidlangan [7]. Barqaror rivojlanish atamasi akademik V.I. Vernadskiyning XX-asrning 20-30 yillaridagi noosfera to'g'risidagi ta'limotiga borib taqaladi.

Markaziy Osiyoda Orol dengizining 40 ming km. kvadratga chekinib, yerlarning eroziyaga uchrashi ekologik tahdidlarning mavjudligini ko'rsatmoqda. Dengiz o'z hajmining 90 %ini



yo‘qotib, uning hajmi 115 mlrd. kub metrga tushgan [10]. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmanistonning dengizga yondosh hududlarida ekologik muhit keskinlashining oldini olish maqsadida turli tadbirlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ITSI miqdorining yuksalishi kuza-tilmoqda. XXI asrning boshiga kelib O‘zbekiston ishlab chiqarish bo‘yicha o‘zining krizisdan oldingi darajasiga yetib BMT TDdagi reytingini yuksaltirdi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarida Sharq va G‘arb mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida tur-licha sharhlangan inson taraqqiyoti, inson taraqqiyoti konsepsiyasi, inson kapitali, insonning tan-lov imkoniyatlari, inson taraqqiyoti indeksleri tushunchalarining bir-birini taqozo etishi, ulardagi dialektik ziddiyatli munosabatlar insonni taraqqiyotning obyektiga ekanligi bilan aloqadorligi is-botlandi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston fanida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekiston san’atining vakili A.Jamolovning 2022 yilda xalqaro 56- Mendeleyev nomli kimyo olimpiadasida oltin medalga sazovor bo‘lganligi, bu olimpiadaning O‘zbekistonda o‘tkazilganligi mamlakatimiz fani va ta’limi yutuqlarining tan olinayotganligini ko‘rsatmoqda. Shaxmat bo‘yicha jahon chem-pioni R. Qosimjonov, N.Abdusattorovning natijalari (2021) O‘zbekistonga nisbatan baholashning subyektivligini ko‘rsatmoqda.

“Inson kapitali” tushunchasi inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy ko‘rsatkichidir. Amerikalik olim T. Shults “inson kapitali” g‘oyasini ishlab chiqqan. Inson kapitali omilining ajratib ko‘rsatilishi Markaziy Osiyo mamlakatlarida ta’lim, fan va sog‘liqni saqlashning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. T. Shultsning fikricha: “Inson kapitali – bu ishlab chiqarishning vositasi va uzoq muddatga mo‘ljallangan predmet kabi ikki vazifani bajaruvchi bilim va mala-kalarning majmuidir”. Osiyoda amerikalik tadqiqotchilar qarashlardan farqli ravishda M. Haq in-son taraqqiyoti nazariyasini ilmiy muomalaga kiritib, T.Shultsning bu qarashlarini tanqidiy baholagan. Bu olim iqtisodiy o‘shish inson taraqqiyoti bilan doimo hamohanglikda faoliyat yurit-mayotganligi muammosini o‘rtaga tashlab inson taraqqiyoti va iqtisodiy o‘shish omillari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabat muammolarini u ayollar, kichik etnik guruhlar va yoshlar masalalarida mavjudligini qayd etgan.

Bu maqsadda M. Haq, S.Anand, A. Marshall, E. Denison, L. Turou, Ya. Tinbergen, J. For-rester, K. Griffin, J. Nait va A. Sen kabi olimlar inson taraqqiyotining muammolarini falsafiy mushohada etgan. Bu olimlar jamiyatning o‘tish davrida muhitning inson taraqqiyotiga ta’siriga e’tibor qaratishgan. 2020 - yilgi tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotining Jahon Oziq-ovqat dasturiga berilishida BRMLarning Covid-19 pandemiyasi sharoitida har qachongidan ham dolzarblashgan-ligini ko‘ramiz. Mazkur dastur 2019 - yilda 88 mamlakatdagi ocharchilikdan aziyat chekkan 100 mln nafarga yaqin kishiga ko‘mak ko‘rsatgan. 2015 - yilda ocharchilikni bartaraf etish BRMLar-dan biri sifatida belgilangan. 2019 yilda urush va mojarolar natijasida 135 million kishi ocharchilikdan aziyat chekkan[12].

BMT Taraqqiyot Dasturi topshirig‘iga ko‘ra mustaqil ekspertlar guruhi tomonidan tayyor-langan Butunjahon hisobotida (2013) Inson taraqqiyoti konsepsiyasi faqatgina inson taraqqiyoti indeksi bilan tugamaydi, deb ko‘rsatilgan. Bunda Jini indeksi (GINI) mavjud bo‘lib, u mamlakat ichida kishilar yoki oilalar o‘rtasida daromadning (yoki iste’molning) teng taqsimlanganligi ko‘rsatkichidir. Mazkur ko‘rsatkichga ko‘ra, Qozog‘iston 2015 yilda 0.269 bilan mintaqada yetakchilik qilgan [13]. Qirg‘iziston 0.290 Tojikiston 0.340, Jahon bankining yangi qabul qilingan mezonlariga ko‘ra, kun davomida 1.25 AQSh dollaridan kam daromad oladigan kishi qashshoqlikda yashovchi deb hisoblanadi. Palma nisbati aholining eng boy 10 % aholisi ixtiyori-dagi YaMMDagi hissasining kambag‘al 40 %ning hissasiga bo‘linishida o‘z aksini topadi.

Markaziy Osiyoning tarixan shakllangan an‘analari va mentalitetiga ko‘ra jinslar tengligi muhim rol o‘ynaydi. “Gender omillarini qamrab olgan holdagi rivojlanish indeksi” ishlab chi-qilgan. Mintaqa davlatlaridagi reproduktiv salomatlik va oilaning rejalashtirilishi masalalari Markaziy Osiyo davlatlari uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolardan hisoblanadi. Bunda salomatlik va uning inson taraqqiyotidagi ahamiyati kattadir.

XX asrning yutuqlari bo‘lgan biotexnologiyalar, biometrika, simsiz texnologiyalar, DNK tahlili, muqobil energiya bilan ishlovchi dvigatellar, kompyuter, lazer, gen tadqiqotlari, nano-



texnologiyalar, global moliyaviy tizimlar, prosessor va kompyuter chiplari, raqamli qurilmalar, koinot tadqiqotlari, optik tola, yo'ldosh televideniyesi, radio, skanerli texnologiyalarning kashf etilib, hayotning barcha sohalariga kirishi negizida insonning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadi turibdi. AQSh, Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlarda ham inson omili dolzarb hisoblanadi. Nyu-Yorkda Garlem, Parijda Klisi syu Bua va Berlinda Shyonefeld kabi muammoli kvartallar borki, ulardagi inson taraqqiyoti darajalari Afrika ko'rsatkichlarini takrorlaydi.

BMTning Jahon Oziq-Ovqat Dasturi ma'lumotlariga ko'ra, 2016 - yilda El-Nino ta'sirida Malavi, Zimbabveda 40 mln.dan ziyod kishi qurg'oqchilikdan aziyat chekdi[14]. 2022 - yil fevralda Turkiya va Suriyada halokatli zilzila 50 mingdan ziyod kishining hayotiga zomin bo'ldi[15]. Hozirgi kunda jahon aholisi bundan o'n yil oldingidan yaxshiroq yashamoqda. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'limi darajasi har ming tug'ilishdan 106 tadan 2016 - yilda 41 ga tushib, kutiladigan umr o'rtacha 3 yilga uzaygan. Ocharchilikdan qiynalayotgan aholi soni 2015 yilgi 777 mln.dan 2017 - yilda 821 mln.ga oshgan. 150 mln. bola esa rivojlanishdan orqada qolgan [16]. Dunyo miqyosida savodxonlik darajasi oshib, boshlang'ich maktabni yakunlaganlar soni 1999 - yilgi 83%dan 2015 - yilda 90%ga yetgan. Jahonda mavjud trendlarga qaraganda, 1970-2023 yillarda o'rtacha umr davomiyligi 59 dan 73 yilga, aholining boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinganligi darajasi 55 %dan 70 %gacha oshgan.

Hozirgi kunda jahonda suv tovar sifatidagi xususiyatini o'zida ifoda etmoqda. 2019 yilda dunyoda suv savdosi 5432 mlrd kub metrni tashkil qilib, 1960 yilgi darajaning 3 baravariga ko'tarilganligini ko'rish mumkin. BMTning 2007/2008 yilgi inson taraqqiyoti bo'yicha ma'ruzasi ma'lumotlariga ko'ra, global isish natijasida sohilbo'yida yashovchi 332 mln kishi ekologik qochoqlar sirasiga kirib, jahonda 1,8 mlrd kishi ichimlik suvidan mahrum bo'lgan. Jahon Iqtisodiy Forumi loyihasida 2030 - yilda ko'ra suvga bo'lgan kutiladigan talab va taklif o'rtasida 40% kamayish qayd etiladi.

Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatining ichimlik suvi bilan ta'minlanish tizimini takomillashtirishda Osiyo Taraqqiyot Banki krediti jalb qilindi. BMT TD, Shveysariya Taraqqiyot va hamkorlik agentligi va O'zbekiston ishtirokida 2010-2013 yillarga mo'ljallangan qiymati 1.2 mln. AQSh dollari bo'lgan "Zarafshon daryosi havzasida suv resurslaridan integratsiyalangan foydalanish va suvni tejash rejasi" amalga oshirilmoqdi. Jahon banki Direktorlar kengashi 2012 yil 13 dekabrda "Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash" loyihasi asosida O'zbekistonga Xalqaro tarraqqiyot uyushmasining imtiyozli 53.2 mln SDR (82.0 mln. AQSh doll.)ga teng kreditni ma'qulladi. Loyiha 2013-2021 yillarda amalga oshirilib, jami 139021,51 mln. AQSh doll.ni tashkil etdi.

QS Supplies Yale universitetining Ekologik samaradorlik indeksiga asosan (Environmental Performance index) mintaqa mamlakatlaridagi inson xavfsizligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan ichimlik suvi sifat ko'rsatkichlariga ko'ra O'zbekiston 54, Qozog'iston 56, Turkmaniston 47,7, Tojikiston 31,7, Qirg'iziston 47 ballga ega bo'lgan.

Jahonda ishsizlarning soni oshib 2009 yilda 199 mln., 2010 yilda 240 mln. va 2022 yilda 210 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotiga ko'ra ularning 13 foizi 24 yoshgacha bo'lgan kishilardir. Buni jahon hamjamiyati tomonidan 1978 yil 12 sentyabrda Olmaotada qabul qilingan "Sog'liq Deklaratsiyasi" misolida ko'rsatishimiz mumkin. O'zbekiston Jahon Banki bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga mos ravishda 2026 yilga qadar Mamlakat dasturini shakllantirdi. Jahon banki hozirgi kunda mamlakatda 5.26 mlrd AQSh dollariga teng loyihalarni tatbiq etgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 noyabrdagi "Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalari banki ishtirokida "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2020 yildan boshlab respublikaning 5 ta viloyatida loyihalar amalga oshirilmoqda. "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3751 conli 2006 yilning 11 maydagi Prezident Farmonining e'lon qilinishi mamlakatimizda inson taraqqiyoti masalalarida muhim voqea bo'ldi. Bu mamlakatimizda mintaqalarni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.



2018 yil 27-28 may kunlari Nukus, Urganch va Ashgabat shaharlarini qamragan tuzli shammollar mintaqada ko'plab ishlar amalga oshirilishi lozimligini anglatadi[17]. Havoga chang-tuz ko'tarilishining oldini olishda Orol dengizining qurigan 350 ming gektar maydoniga 2018 yil dekabrda saksovul va sho'rga chidamli o'simliklar ekildi. 2018 yil 1 yanvardan davlat xizmatlari markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi natijasida fuqarolarga turli masalalarda katta yordam ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. 2022 yilda axborotlarning ochiqligi Open Data Inventory (ODIN) indeksida O'zbekiston jahonda 38-o'rinni, Tojikiston 123-, Turkmaniston 192-, Qirg'iziston 92-, Qozog'iston 48- o'rinni egallaganligi respublikamizda ushbu sohadagi ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

Bugun mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida "Bir million dasturchi" loyihasi asosida 500 ming kompyuter dasturlash asoslariga o'qitilmoqda. BMTning 2015 yil sentyabrdagi Sammitida 191 davlat tomonidan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari qabul qilinib, bunda 17 ta asosiy vazifa qayd etilgan. Bular inson omilining rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bular quyidagilardir:

"1) qashshoqlikni bartaraf etish; 2) ocharchilikni yo'qotish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; 3) sog'lom hayot va farovonlikni ta'minlash; 4) inklyuziv va teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash; 5) gender tengligi va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash; 6) ichimlik suvi va sanitariya sharoitlarining ta'minlash; 7) arzon, barqaror va zamonaviy energiya ta'minotini ta'minlash; 8) inklyuziv iqtisodiy taraqqiyot, munosib ish bilan ta'minlanish; 9) kuchli infratuzilmani barpo etish, barqaror sanoatlashuv va innovasiyani qo'llab-quvvatlash; 10) mamlakat ichida va davlatlararo tengsizlikni kamaytirish; 11) aholi manzilgohlarini barqarorlashtirish; 12) iste'mol va ishlab chiqarishni ta'minlash; 13) iqlim o'zgarishi va uning ta'sirlariga qarshi kurash; 14) barqaror taraqqiyotga erishishda okean va dengiz resurslaridan barqaror foydalanish; 15) Yer ekotizimlarini muhofaza etish, cho'llashishga qarshi kurash, bioxilma-xillikning yo'qolishini to'xtatish; 16) inklyuziv jamiyatni targ'ib etish, samarali inklyuziv muassasalarni barpo etish; 17) global sherikchilik". Bu 17 maqsadni amalga oshirishda o'z navbatida 2030 yilga kelib 169 vazifani hal etish lozim. Bulardan ikkinchi maqsadni inobatga olmaganda, qolganlari Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Bu Deklaratsiyaga ko'ra jahonning barcha mamlakatlari 2030 yilgacha bu vazifa va muammolarni yechishlari talab etiladi.

Xulosa. Markaziy Osiyo davlatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil) masalasini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Inson taraqqiyoti konsepsiyasining kun tartibida bo'lishi ikki qutbli dunyoning barham topib, O'zbekistonning mustaqillikka erishganligi bilan izohlanadi. Bu konsepsiya ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ko'p bo'lgan Janubiy Osiyoda shakllanishiga qaramasdan, uning ba'zi mezonlari Markaziy Osiyoning davlatlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanish g'oyalarining amalga oshirilishini ta'minlashda barcha davlatlar – boy davlatlar bo'ladimi yoki kambag'al davlatlar bo'ladimi, qo'yilgan maqsadga erishishda har bir insonga imkoniyatlarning iloji boricha keng diapazonini taklif etadigan xohishni namoyon qilishlariga zamin hozirlamoqda. Bunda Markaziy Osiyoning inson kapitali ko'rsatkichlari bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi. Mintaqadagi inson taraqqiyoti salohiyatidan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilgan holda yanada samarali foydalanishlari lozimdir. Mintaqa davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohalariga ijtimoiy injiniringning zamonaviy metodlari, shu jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanishni joriy etish lozimligini ko'rsatmoqda. Mintaqadagi davlatlarning bir-birlarida mavjud bo'lgan tabiiy boyliklardan birgalikda foydalanishlari, bu transport, neft-gaz sohasi, gidroresurslarni ham nazarda tutadi. Mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar ijtimoiy sektorga ajratiladigan transfertlar hajmini kamaytirishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida mukammal ijtimoiy strategiyalar ishlab chiqilishi lozimligini bildiradi. Bu inson kapitalini rivojlantirishda asos vazifasini o'taydi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasida aholining yoppasiga ta'lim muassasalariga jalb qilinishi lozimligi nazarda tutilsa, Markaziy Osiyo uchun keyingi bosqich bo'lgan o'rta maktabdan keyingi ta'lim masalalari dolzarbdir. Aholining barcha qatlamlarining maorifi, hayot darajasi, tabiiy zahiralarga egalik qilish va undan foydalanishi mintaqa davlatlari uchun dolzarbdir. Mintaqadagi davlatlarning rivojlanish strategiyalari



BMTning BRMLarni qabul qilgan holda ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va kadrlarning malakasini oshirish kabi masalalarni hal qilishlari inson kapitalining rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Xalqaro hamjamiyat, investorlar, erkin ommaviy axborot vositalarining mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining inson taraqqiyoti masalalaridagi uzviy hamkorligi talab etiladi. Mintaqa davlatlari inson taraqqiyoti muammolarini yechishda o'z resurslariga maksimal darajada tayanib, o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishlarining substansional mohiyati ochib berilgan.

Mintaqada tez tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan kasalliklarning oldini olish va buning yagona muvofiqlashtiruvchi markazini tashkil qilish kerak. Inson taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar: ishsizlik, hayot standartlarining pasayishi, o'quvchi-yoshlarda maktabga qatnashishning pasayishini oldindan aniqlab, uni bartaraf etish tadbirlarini qo'llaydigan ixtisoslashgan davlat dasturlarini ishlab chiqish ehtiyojini tug'dirmoqda. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda elektron hukumat tamoyillarini joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida mintaqa mamlakatlarida o'zining ijobiy samarasini berib, u turli byurokratik sarfxarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Inson taraqqiyotini ta'minlovchi alohida tashkilotni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkentda BMT shafe'ligida inson taraqqiyoti masalalarini muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy markaz faoliyatini tashkil qilish kerak;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абу Наср ал-Фаробий. Афлотун фалсафаси. // Рус тилидан У.Отажон таржимаси. Jahon adabiyoti. –Тошкент: 2009. –№ 6. –Б. 142.
2. Руссо Ж.Ж. Халқ бахти ҳақида // (Рус тилидан А. Абдуқодиров таржимаси). Жаҳон адабиёти. – Тошкент: 2012. – №8(184). – Б. 156-166.
3. Кант И. К вечному миру. – Москва: Рипол-Классик, 2020. –С. 221.
4. Frankopan P. The new Silk Roads. The present and future of the world. –London: Bloomsbury, 2018. –P. 126.
5. Haq M. The Human Development Paradigm. –New Delhi: Oxford University Press, 1995. – P.27.
6. Mehrotra S. Seizing the Demographic Dividend. Policies to Achieve Inclusive Growth in India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 422 p.
7. Sen A. Development as freedom. –New York: Oxford University Press, 1999. –2-3 pp.
8. Вернадский В. И. Биосфера и ноосфера. –М: Айрис-пресс, 2013. – С. 224-226.
9. Greenberg I. La mer d'Aral renaît grace a un grand barrage // Courier International.– Paris: 2006. -№ 811. –47-50 pp.
10. <http://www.asiawaterwire.net/node/329>. // Giant Turkmen Lake Sets Off Environmental Alarms
11. Schulz T.W. Investment in Human Capital // American Economic Review, –Pittsburgh : 1961. №3.– 17 p.
12. <https://www.nobelprize.org/prizes/peace/2020/press-release/> The Nobel Peace Prize for 2020
13. <https://databank.worldbank.org/data/reports.aspx?source=2&series=SI.POV.GINI&country>





MUNDARIJA:

Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<i>DOLZARB MAVZU</i>		
Nazarov Akmal Mardonovich, Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li	Yoshlar va uyushmagan yoshlar bilan ishlashdagi xalqaro tajribaning psixologik va ijtimoiy xususiyatlar	3
<i>PSIXOLOGIYA</i>		
Ismatova Dilafruz Tuymuratovna	Zamonaviy oilada ota-onalarning psixologik salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	10
Po'latova Madina Shavkatovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat protsesslarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik yondashuvlari	13
Musayeva Muxlisa G'aybullayevna	O'smirlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishda affiliatsiya motivining o'rni	17
Tilavov Muxtor Hasan o'g'li	Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik omillari	22
Axtamova Ferangiz G'ayrat qizi	Causes of the spread of destructive behavior among adolescents and psychological methods to reduce it	26
<i>PEDAGOGIKA</i>		
Islomov Nurtoiy Namoz o'gli	Ilmiy-didaktik atamalarini o'zlashtirishining pedagogik-psixologik komponentlari	30
Kamolova Muyassar Komil qizi	O'smir yoshlarning «muvaffaqiyat» formulasi (professional ta'lim muassasalari misolida)	35
Bekova Nazzora Jo'rayevna, Xolmurodova Gul- rux Qahramonovna	Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiy obrazi	39
Raxmatova Sabrina Otabek qizi	Rus tiliga tarjima qilingan o'tkir hoshimov asarlarida lingvo-poetik ma'no va milliy obrazlar transformatsiyasining xususiyatlari	43
Sadoqat Fayzulloyeva Furqat qizi	Umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda aktivi qo'llashning metodik tamoyillari	46
Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna	Bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini shakllantirish Mexanizmlari	51
Adilbekova Manzura Usenbek qizi	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini shaxslararo munosabatlarga o'rgatish metodikasi	55
<i>IQTISODIYOT</i>		
Sayfulloyev Oybek Olimovich	Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	59
Salixov Saidamir Alisher o'g'li	Mamlakat oziq - ovqat eksporti hajmini oshirishda korporativ logistikani qo'llash tamoyillari	63



<i>FALSAFA</i>			
Turdiyev Sobirovich	Bexruz	Demokratik jamiyat rivoji va ma'naviy yangilanishlarning dialektik aloqadorligi	66
Shirinov Qanoatovich	Anvar	Inson kapitali g'oyalarining amalga oshirilishi yangi ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida	72



**“ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR”
ILMIY NAZARIY JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH
TALABLARI**

1. “Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!
1. “Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 2. ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 3. maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;
 4. maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
 5. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
 3. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
 4. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
 5. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
 6. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
 7. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
 8. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.
 9. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
 10. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
 11. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.



**“ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR”
ILMIY NAZARIY JURNALI
№ 1 2025**

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

**Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar ilmiy-nazariy jurnal.
Buxoro, 2025. № 1-son, B. 83**